

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Farg‘ona davlat universiteti

QAHHORJON YO‘LCHIYEV

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT

o‘quv-metodik ko‘rsatma

Farg‘ona - 2018

Mazkur uslubiy ko'rsatma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Is'hoqxon To'ra Ibratning hayoti va ijodiy faoliyati" nomli maxsus kurs tashkil etish to'g'risida"gi 140-sonli buyrug'idagi vazifalarni bajarishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Mas'ul muharrir
Yo'ldoshxo'ja Solijonov,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchi: 1. Sabirdinov A. filologiya fanlari doktori.
2. Sulaymonov M. filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti

Ushbu uslubiy-ko'rsatma Farg'ona davlat universiteti ilimiy kengashining 2018-yil 30-martdagi 8-yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida atoqli ma'rifatparparvar Is'hoqxon Ibrat yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi 208-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-iyuldagi 177-sonli majlis bayonining 81-bandiga asosan ijrosini ta'minlash yuzasidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarida adib hayoti va ijodiy faoliyatini fakultativ asosda o'qitish usul va vositalari ko'rsatilgan.

Kitob professor-o'qituvchi, talabalar va adib ijodi bilan qiziquvchi keng ommaga mo'ljallangan.

KIRISH

Globalashuv davrida milliy va ma'naviy qadriyatlarga "ommaviy madaniyat"ning tahdidi kuchayib bormoqda. Eng avvalo, yosh avlodni bilim olish, vatan va yurt obodligi, rivojlanishi uchun hissa qo'shishi lozimligiga tahdid solib, yoshlarning ongini "ravon hayot", "oson pul topish", "ma'naviy begonalashish", "ruhan uzoqlashish" kabi illatlar bilan zaharlamoqda. Bu esa milliy ma'naviy qadriyatlarimiz ajdodlarimizning ibratli hayoti, sayi harakatlari bilan saqlab qolingani, ularni asrab-avaylab, ya'ni ma'naviy boyliklar bilan boyitib kelajak avlodga yetkazish vazifasini oldimizga qo'yadi.

Turli mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarga qarshi "bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"¹. Shuning uchun, mumtoz adabiyot an'alarining bugungi madaniy, adabiy va tarixiy qadriyatlar tiklanishi jarayoniga joriy etish, tatbiq qilish, ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama yetuk etib tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan jadid adabiyoti vakillarining hayoti va ijodini keng ommaga targ'ib qilish ulkan ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XIX asr oxiridayoq dunyo kezib, ilm o'rganib, bir nechta tillarni puxta bilgan poliglott, shoir, pedagog, publitsist, tilshunos sifatida Is'hoqxon to'ra Ibratning umrini o'rganish, yosh avlodga unga nisbatan cheksiz faxr iftixor tuyg'usini shakllantirish va shu orqali ularni vatanparvar, fidoiy shaxs etib tarbiyalash lozim. Shuning uchun mamlakatimiz ta'lim muassasalariga "Is'hoqxon to'ra Ibratning hayoti va ijodiy faoliyati" nomli maxsus kurs o'quv dasturi kiritildi. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida atoqli ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi 208-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-iyuldagi 177-sonli majlis bayonining 81-bandiga asosan ijrosini ta'minlash yuzasidan ishlab chiqildi. U oliy ta'lim muassasalarining barcha qatlamini qamrab olib, gumanitar, ijtimoiy, iqtisod va huquq sohalarini uchun 4 soat ma'ruza va 2 soat seminar, ishlab chiqarish, texnika, qishloq va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, servis sohalarini uchun esa 2 soat ma'ruza va 2 soat seminar mashg'ulotini tashkil etadi. Shuningdek, har bir soha vakillari mustaqil o'qishlari uchun Is'hoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon", "Jome'-ul-xutut", "Lug'ati sittati alsina" kabi ilmy asarlarida hamda qator badiiy asarlari, o'z davrining dolzarb muammolarining yechimiga bag'ishlangan maqolalarini o'rganish tavsiya etiladi.

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламида юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017. – 4 август.

Maxsus kursni o'qitishning asosiy maqsadi – Is'hoqxon Ibratning boy adabiy va ilmiy merosini talabalarga o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyat va ma'rifat ruhida tarbiyalash, Ibrat ijodini o'rganish orqali talaba yoshlar adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, milliy adabiyot tarixi haqidagi bilimlarini oshirish va mustahkamlash, farzandlarimizning ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga hissa qo'shishdir.

Nazariy mashg'ulotni tashkil etishda professor-o'qituvchi adib asarlari va tarixiy manbalardan foydalanib o'tadi. Avvaldan belgilangan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarga beriladigan ilmiy ma'lumotlar aniq reja asosida soddalikdan murakkablikka qarab izchillik bayon etilgan. Lozim o'rinlarda tayanch so'z va iboralarga izohlar beriladi. Foydalaniladigan asosiy manbalar ro'yxati, mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar mavjud.

Mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar nimani qay darajada bilishi lozim bo'lgan tushunchalarni yozdiradi. Ta'lim oluvchilarning mavzuga oid savollariga javob beradi, mavzuni mustahkamlaydi, yangi atamalar bo'yicha qo'llaydigan pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim oluvchilarni maxsus kursi bo'yicha tushunchasini shakllantiradi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda avval tavsiya shaklidagi ilmiy muammo yoki masala yuzasidan reja va tegishli adabiyotlar ro'yxati beriladi. Seminar mashg'ulotida ilmiy-nazariy muammolar muhokama qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim oluvchilar seminar mashg'ulotida Ibrat ijodi, asarlarining g'oyasi, mazmun-mundarijasini o'rganadilar, nazariy ma'lumotlar asosida adib ijodiy merosi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Seminar mashg'ulotini tashkil etishda o'tilgan mavzular bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan savol-javob qiladi, o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan tushunchalar mashg'ulot davomida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi.

Mavzular bo'yicha talabalarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarish uchun topshiriqlar beradi. Seminar mashg'ulotlarida Ibratning asarlarini kichik guruhlarda ishlash orqali tahlil qilish, bugungi kun bilan bog'lash o'quvchilarning o'quv kursi bo'yicha olgan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'quv dasturining axborot-uslubiy ta'minotida ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida professor-o'qituvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlari, fikr-mulhazalari, mavzuga oid video va audio materiallar, mustaqil ish uchun zarur bo'lgan o'quv qo'llanmalar, gazeta va jurnallar, internet resurslari hamda pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar qo'llanilishi nazarda tutiladi.

1-mavzu: Is'hoqxon to'ra Ibratning hayoti va ijodiy-ma'rifiy faoliyati

Is'hoqxon Ibratning hayot yo'li haqida ma'lumot. Adib haqida zamondoshlari va o'sha davr vaqtli matbuot nashrlari materiallaridan lavhalar, adibning o'z tarjima holiga oid ma'lumotlar. Ibratshunoslikning shakllanishi va rivoji. Adib asarlarini o'rganish muammolari. Adib asarlarining zamonaviy nashrlari.

Shoir asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi. Shoir she'rlarining mavzu ko'lami, "Islahi millat", "Bo'lubtur", "Chaman ichra" kabi she'rlar tahlili. Shoir publitsistikasi va she'rlarida davrning dolzarb masalalari talqini. "Tarixi Farg'ona" asaridagi voqealarning xronologik asosdagi bayoni, davr voqealarining haqqoniy tasviri, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlari tarixiga oid ma'lumotlar. Asarda "Boburnoma" an'analari.

2-mavzu: Is'hoqxon to'ra Ibrat – tilshunos va publitsist. Ma'rifatparvarlik, pedagogik va noshirlik faoliyati

"Lug'ati sittati alsina" ("Olti tilli lug'at") o'zbek leksikografiyasi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan noyob asar sifatida. Lug'atning o'ziga xosligi, ilmiy va amaliy ahamiyati.

"Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") - xatlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi ilmiy-tarixiy asar. Asarda tilga olingan qadimiy yozuvlar va ular haqida qiziqarli ma'lumotlarning berilishi. Asarning ilmiy ahamiyati.

Ibrat publitsistikasi. Adibning "Turkiston viloyati gazetasi"da e'lon qilingan ilmiy va ma'rifiy maqolalari. "Eski maktablar xususida", "Millatni kim isloh qilur" maqolalarida millat ma'naviyati kelajagiga doir qarashlar.

"Mezon-uz-zamon" asarida zamon evrilishlari va ularga munosabat masalalarining yoritilishi. Asar to'qqiz mezonidan iboratligi, ularda muayyan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalarning bayoni.

"Madaniyat haqida masnaviy"da "madaniyat" tushunchasi ta'rifi. Masnaviyda "madaniy" va "badaviy" tushunchalarining qiyosi. She'rda jahonning madaniy shaharlari ta'rifi. Madaniy turmush tarziga doir qarashlar. Is'hoqxon Ibratning madaniyat va istirohat bog'ini tashkil ettirishi. Xalq ma'rifiy darajasini yuksaltirishdagi xizmatlari.

Ibratning pedagogik qarashlari. "Usuli savtiya" maktabini tashkil etishi. "San'ati Ibrat" va "Ilmi Ibrat" – yangi usul maktablari uchun qo'llanmalar sifatida.

Seminar mavzulari tahminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Is'hoqxon Ibrat she'rlarining tahlili. "Tarixi Farg'ona" asarida adabiyot va adabiy muhit masalalarining yoritilishi. Ibrat ilmiy-ijodiy merosining o'rganilishi.

2. “Mezon uz-zamon”, “Jome’ ul-xutut” va publitsistik asarlari matni ustida ishlash: tuzilishi, shakl va mazmun birligi.

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar jarayonida talabalar maxsus kurs ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida olgan bilim va orttirgan malakalarini mustahkamlash uchun professor-o’qituvchi rahbarligida ishlaydilar. Bunda ular Ibrat asarlarini mutolaa qiladi, tahlil va talqin etadilar, qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalanib adib hayoti va ijodiga oid yangi manbalar to’plashadi; slayd, referat, ko’rgazmali qurollar tayyorlashadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-8-iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida so‘zlagan nutqi.

2. Ibrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2005.

3. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004.

4. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar. – T.: Universitet, 2004.

5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Ma’naviyat, 2002.

6. Солижонов Ё. Зулматдан нур кидирганлар. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхона нашриёти, 2007. 6-14 бетлар.

7. Tojiboyeva M. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.

Elektron ma’nbalar

8. www.ziyonet.uz kutubxonasi.

9. www.jadid.uz Ibrat.

10. www.wikipedia.org.

1-mavzu: Is'hoqxon to'ra Ibratning hayoti va ijodiy-ma'rifiy faoliyati.

Ibratshunoslik. Is'hoqxon Ibrat shoir va tarixnavis

REJA:

1. Ishoqxon Ibrat haqida zamondoshlari.
2. Ibratning hayoti haqida.
3. Ibratning ta'lim va tarbiyasi.
4. Ibrat taraqqiyparvar ziyoli.
5. Ibrat hozirjavob shoir.
6. Adib merosiga bugungi e'tibor.

Tayanch so'z va iboralar: Ibrat, shoir, tarixnavis, tilshunos, arxitektor, ixtirochi, jadidchilik harakati, jadid adabiyoti, usuli ibtidoiya, usuli savtiya.

Is'hoqxon to'ra Ibrat haqida zamondoshlari. Jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo'lgan ulug' adib Is'hoqxon Ibrat nafaqat tarixchi, shoir, tilshunos, noshir va o'qituvchi balki o'z davrining yetuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi va eng birinchi galda vatan ravnaqi uchun fidoiylik bilan kurashib, butun umr intilgan tarixiy shaxsdir. Shoir XIX asr oxirida mamlakatda boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni to'g'ri anglagan, odamlarni yuksak ideal sari intilishi, milliy uyg'onishi, o'zligini tanishi, buning uchun fan-texnika sohasi yangiliklari, ilm, ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etish, turmushni sog'lom aqida va teran tafakkur asosida qurish lozimligini targ'ib qilgan. Shu bois uning boy madaniy merosi, nafaqat mamlakatimizda, hatto chet ellarda ham puxta tadqiq etilmoqda. Masalan, uning «Mezon uz-zamon» (Zamon o'lchovi) asari 2001 yilda yapon olimlari bilan hamkorlikda nashr etilgan bo'lib, undagi to'qqizta mezon bugungi odamlar uchun ham katta ahamiyatga ega. 2000 yilda esa shoir qalamiga mansub she'rlar yirik so'zboshi bilan Turkiyada turk adabiyoti antologiyasi seriyasida nashr etilgan. Professor Ulug'bek Dolimov milliy uyg'onish pedagogikasi (-T.: "Noshir", 2014.) nomli asarida Ibrat haqida va uning ijodini xorijdagi tadqiqi haqida qimmatli fikrlarni beradi. Yana U.Dolimov professor N.Jabborov bilan hamkorlikda adib asarlarining tanlagna nashrini tayyorlashdi.

Uning serqirra ilmiy-ijodiy va tashkilotchilik faoliyati o'z davridayoq keng miqyosda e'tirof etilgan. Ma'rifatparvar shoir, maorifchi Ibrohim Davronning quyidagi so'zlari buning dalili: «Is'hoqxon to'ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustozi komilligi bilan butun Farg'ona va digar jihat Oziyoyi vustoda (O'rta Osiyoda) inkor o'lunmas darajada bir mavqei mumtoza tutmushdur. Ishoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda, bilo shubha, arxitektor, texnik va mexanik va fiziqiya ilminda tilifonist, tilig'rofigist va yana ximik desak yana ozdur; chunki bu

ilmlarni bilur. Is'hoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lib, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur». Mazkur o'rinda muallif Ibratni din ilmida mudarris, dunyoviy ilmlar ichida esa arxitektor, texnika, fizika va mexanika ilmlaridan xabardor yaxshi telefonist, ximik, qator ixtirolari ham bordur deya, Ibratning qator yutuqlarini sanaydi. Darhaqiqat, yuqoridagilar oldiga uning asarlari tahlili orqali uning tarixchi, adabiyotshunos, shoir, tilshunos, mohir pedagogok, tarjimon, jurnalist, noshir ekanligini ham qo'shish mumkin.

Shu o'rinda, quyidagi muammoli savollar tug'iladi:

1. Ibrat shu darajaga katta olim, serqirra ijodkor bo'lib yetishishida qanday omillar asos bo'lgan?

2. Adib shakllanishida oilasi va Qo'qondagi ta'lim qanday o'rin tutadi?

Ibratning hayoti haqida. Bu savollarga javob olish uchun uning tarjimai holi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Asl ismi Is'hoqxon bo'lgan adib o'ziga Ibrat adabiy taxallusini bejiz tanlamagan. Ma'rifatparvar shoir zamondoshlarini ilm-fan, madaniyat va ta'lim-tarbiya borasida erishilgan so'nggi yutuqlardan ibrat olishga, ularni o'rganishga chaqirdi. O'zi ham izlanishdan, o'qib-o'rganishdan charchamadi, bu borada boshqalarga ibrat ko'rsatdi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat 1862 yil 19 yanvarda Namangan viloyati To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning ota-onalari Junaydullaxo'ja va Huribibi davrining o'qimishli kishilaridan bo'lganlar. Adibning asl ismi Is'hoqxon bo'lib, to'ra uning nasabi, Ibrat esa taxallusidir. To'liq ismi-sharifi: Is'hoqxon Junaydullaxon o'g'li (Ibrat).

Is'hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o'qidi, ammo onasining qo'lida savod chiqardi. Bu haqda o'zi shunday yozadi: «Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o'z uyimizda volidai marhumamdan o'qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim».

Adibning onasi Huribibi xonim maktabdor bo'lib, o'z maktabida faqat quruq yodlash bilangina cheklanmay, qizlarga yozishni, husnixatni ham o'rgatar edi. O'zi ancha savodxon bo'lib, husnixatdan xabardor edi. Shuning uchun ham Is'hoqxon onasini ko'p o'rinlarda ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Demak, ota-onasining xalq ziyolisi ekanligi va Is'hoqxonda ham ilm ma'rifatga intilish, teran fikrlash, har bir narsaga, voqea hodisaga mushohada bilan yondashish kuchli ekanligi bejiz emas ekan. Unda badiiy-estetik did yuksak bo'lib, bolaligidan adabiy asar va san'atni yaxshi anglaganini kuzatish mumkin. Masalan, u ulamolarning rasm bilan fotoning farqiga bormay hammasini bid'at deb hukm qilishlariga e'tiroz bildirishi bilan bog'lik voqeani keltirish mumkin.

Ta'lim va tarbiya yillari. Adabiyot va san'atga zo'r muhabbat qo'ygan Is'hoqxonni o'qishni davom ettirish uchun Qo'qonga yubordilar. U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga 1878 yili o'qishga kiradi. Qo'qondagi 8 yillik tahsil Is'hoqxon Ibrat dunyoqarashi, shaxs sifatida shakllanishida katta o'ringa ega bo'ldi. Bu yillari shahar garchi avvalgi siyosiy mavqeini yo'qotgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida tub sifat o'zgarishlarda yetakchilardan biri edi. Uning bu adabiy-madaniy hayotdan bahramand bo'lganligi tabiiy. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan.

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadi. U o'qish davomida buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi. U rus va o'zbek tillarida chiqadigan Turkistonning ilk gazetalari «Туркистон вилояти газетаси», «Туркестанские ведомости» hamda o'z davrining yirik jadidchisi Ismoilbek G'aspralining «Tarjimon» gazetasi bilan ham ilk bor Qo'qonda tanishdi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Is'hoqxon tomonidan tashkil qilingan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjimon» gazetasining hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo'lgan.

Is'hoqxon to'ra Ibrat 1886 yili Qo'qon madrasasini tugatib, o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keladi. O'z faoliyatini ilg'or maorifchi sifatida ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi: o'sha yili o'z qishlog'ida maktab ochadi. Uning maktabi «usuli qadim» («usuli tahajji»), ya'ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Ibrat Qo'qonda o'qib yurgan vaqtlaridayoq o'lkada ochilayotgan rus maktablaridagi o'quv usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usulidan ustunligini sezgan edi. Ishoqxon o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan tovush (savtiya) usulini tatbiq qildi va «usuli savtiya»ni eski metod tarafdorlaridan himoya qildi. Biroq bu maktabida uzoq vaqt ishlay olmadi. Ayrim johil mutaassiblar uning maktabini «kofirlar maktabi» deb e'lon qilib, xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga harakat qildilar. Hatto general-gubernatorlik amaldorlari yordamida yoptirishga muvaffaq bo'ldilar.

Ibrat shoir, tilshunos, tarixnavis sifatida. Ibrat o'zining «Lug'ati sittati alsina», «Jome' ul-xutut» va «Tarixi Farg'ona» asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya'ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib boradi. Biroq uzoq yo'l mashaqqati, keksalik onasiga salbiy yetadi va Jidda shahrida o'pka shamollash kasali bilan vafot etdi.

Is'hoqxonning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el xalqdari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu

mamlakatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, o‘zini qiynagan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar ildizini aniqlash istagi ham yo‘q emas edi: bu haqda adib quyidagilarni qayd etadi: «...Umrum naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o‘lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havo taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum...».

Is’hoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, SHarq mamlakatlari bo‘ylab sayohatini davom ettirdi. Shu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Kobul, Arabistonning Jidda kabi katta shaharlarida istiqomat qildi. Damashq, Quddus va Jiddada nisbatan fransuz tili kengroq tarqalganligi sababli bu tilga ham qiziqadi. Keyinchalik Sheroz orqali Hindistonga keladi. 1892—1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Mumbai va Kalkuttada yashadi. Bu erda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. Chet ellarda u Sharq va G‘arb xalqlari hayoti, madaniyati va san‘atini muqoyasa etish imkoniga ega bo‘ldi. Evropaning ilg‘or ilm-fanini yaqindan o‘rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli materiallar to‘pladi. U Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi. Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon, sanskrit yozuvlarini o‘rgandi. Bu haqda zamondoshi Ibrohim Davron shunday yozadi: «...Fazoili insoniyadin maoda qozi to‘ra janoblari turkcha, forsha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar».

Is’hoqxon Ibrat bu mamlakatlarda Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot va texnika yangiliklari bilan tanishdi, zamonaviy fan yutuqlarini egallash uchun G‘arb tillarini bilish zarur ekanligini yaxshi angladi. Lekin bu madaniy hayotdan bahramand bo‘la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa Sharq xalqlari hayoti uni iztirobga soldi. Is’hoqxon o‘z Vatanida ko‘rgan mustamlaka zulmining og‘ir dahshatlarini chet mamlakatlarda ham ko‘rdi, hamma mustamlaka mamlakatlarda xalq hayoti bir xilda og‘ir ekanligini tushundi. Mustabidlarga nafrat bilan qaradi. Ibrat bu mamlakatlarda naqqoshlik, kishilarga muhr o‘yib berish, masjid-madrasalar peshtoqlariga, qabr toshlariga naqsh solib berish, ba’zi kitoblardan namunalar ko‘chirib berish yo‘li bilan tirikchilik o‘tkazdi.

1896 yili Qashqar orqali yurtiga yetib keladi. Ibrat chet eldan qaytgach adabiy-ma’rifiy ishga astoydil kirishadi. U olti tilni o‘z ichiga olgan «Lug‘ati sitta alsina» (Olti tilli lug‘at) nomli lug‘at kitobini 1898 yil tugatadi. Biroq turli obyektiv sabablarga ko‘ra uni faqat 1901 yildagina nashr ettira oladi, xolos. Shunday bo‘lsa-da asar xalq orasida qo‘lyozma tarzda tarqalib mashhur bo‘ladi. Ibrat bi yillari yanchi tipdagi maktabini ochib, o‘qituvchiligini davom ettiradi. Hamom, choyxona quradi.

Is'hoqxon Ibrat chet ellarda olim va fozil kishilar bilan, ular qaysi dinga yoki millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, yaqin aloqada bo'ldi. «Har bir lison safar axlina yuz oltun barobarinda» ishlatilganligini tushungan ma'rifatparvar chet tillarni o'rganishga katta e'tibor berdi: «Har bir zavvor va axli fazl kishini ko'rsam, kayfiyat va ta'limot maollarini andin so'radim».

«Matbaai Ishoqiya»ni ochib nashr ishlarini yo'lga qo'yadi. «Kutubxonai Is'hoqiya», «Fotografiya Ishoqiya» va «Ishoqiya bog'i» ochib ommani ma'rifiy madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Biroq ommaviy qatag'on Ibratni ham chetlab o'tmadi. 1937 yilning bahorida Ibratni ham qamoqqa olishdi. 75 yoshni qoralagan shoir-ma'rifatparvar sho'rolar hibsxonasida ikki oy ichida, sudi bo'lmay qazo qiladi.

Ibrat – iste'dodli shoir (She'rlari ilova qilingan). U-o'zbek, arab va fors tillarida erkin ijod qilgan. She'rlarini to'plab devon tuzgan. Ammo mazkur devon topilgani yo'q. «Ilmi Ibrat» she'riy to'plami 1909 yili o'z matbaasida nashr etilgan.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal Subhon,
Yo'lida jon qilay qurbon, sahar vaqti chaman ichra.

Ibratliy, bexabar bo'lma, yana g'aflat bila o'lma,
Gunohi beadam qilma, sahar vaqti chaman ichra.

Ibrat nihoyatda ihcham, baytlari bir-biriga juda mutanosib, o'ziga xos kompozitsiyaga ega g'azallar yarata olgan. G'azallardagi o'ziga xos o'xshatishlar, tashbih, sifatlashlar Ibratning nozik didi, badiiy-estetik tushunchasi yuqori ekanligidan darak beradi. Badiiy mukammal she'rlari orasida talaygina hajviy asarlari ham bor.

Ey, rayonga rais o'rtoqlar,
Davlat uzra yuring bo'lib sog'lar.
Quridi o'rik, olma, yong'oqlar,
Xo'jasini qo'yib bag'riga dog'lar.
Sayrashar erdi gul uzra bulbullar,
Bulbul o'rnig'a quzg'unu zog'lar.

Ibrat o'z davrining yirik muarrixii sifatida «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon-us-zamon» asarlarini yaratdi. Ularda adib ijtimoiy, siyosiy masalalarga jiddiy munosabat bildiradi. Tilshunos sifatida yozgan «Jome' ul xutut» asarida esa muallif yozuvlarning eng qadimiysi – piktografik yozuvlardan, so'nggi davrga eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot bosqichlarini yoritib berishga harakat qilgan.

Ibrat ijodiy merosidan turli mavzudagi she'riy asarlar ham o'rin olgan. Shoir “Xush keldingiz”, “Bo'lubdur”, “Chaman ichra”, “Ado qilasiz”, “Qalaysizlar” singari g'azallarida ishq-muhabbat va insoniy his-tuyg'ularni tarannum etsa, “Gazet xususida”, “Tarixi taraktur”, “Tarixi chopxona”, “Tabrik Namongondin”, “Madaniyat haqida masnaviy”

kabi she'rlarida ilm-fan yutuqlari va zamonasining ilg'or yangiliklarini olqishlaydi, ularga munosabat bildiradi. Bu o'sha davrdagi o'zbek she'riyatida kuchli bo'lgan publitsistik ruh va ijtimoiylikning ta'siri hisoblanadi. "Tarixi vagon Is'hoqxon Ibratdin" muxammasida shoir Namanganga poezd kelgani, uning qulayliklarini ta'rifu-tavsif qilar ekan, bunday yangiliklar va kashfiyotlar ilm tufayli ekanini ta'kidlab, shunday yozadi:

O'qingiz, ilmi hikmat sizga, bu ish katta ibratdur,
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,
Bu ashyoi jadidi mubaddini asli hikmatdur,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

(Aynan shu hodisaga bag'ishlangan maqolasi gazetada ham bosiladi. Uni adib maqolalaridan namunalarda keltirdik).

1908-yilda Ibrat Ufa va Orenburg shaharlariga boradi, orenburglik Gaufman degan matbaachidan kreditga (o'n yilda to'lash sharti bilan) litografik mashina sotib oladi. Bu mashinani Qo'qongacha poezdda, To'raqo'rg'onga tuyalarga yuklab olib keladi va o'zi qurdirgan hammom o'rnida "Matbaai Ishoqiya" bosmaxonasini tashkil etadi. Bosmaxonada savod chiqarishga oid qo'llanmalar, risolalar, darslik va turli mavzudagi adabiyotlar, plakat va otkritkalarni nashr etadi. Ibrat o'z bosmaxonasiga nur tarayotgan quyosh tasvirini ramz qilib olgan. Bunda ilmni quyoshga qiyoslash, bosmaxona esa ziyo tarqatayotganiga ishora bor edi. Ibrat o'z matbaasini kengaytirish va kitoblarni targ'ib etish uchun tinimsiz izlandi, mehnat qildi. Uning chopxonasi 1910-yilda Namangan shahriga ko'chirildi. Ibrat viloyat markazi va tumanlarda bir nechta kitob do'konlari ochishga bosh-qosh bo'ldi, ularda "Matbaai Ishoqiya"da chop etilgan kitoblarni arzon narxlarda sotishni yo'lga qo'ydi. 1913-yilda Ibrat "Al-tijor al-Namangan" nomi ostida gazeta chiqarishga ruxsat berishni so'rab hukumatga iltimosnoma yozdi. Lekin bu xayrli ishga ruxsat berilmadi. Ma'rifatparvar shoir o'z xonadonida juda katta va boy kutubxona tashkil etishga muvaffaq bo'lgan. Bu kutubxonada turli tillarda bitilgan noyob ilmiy, adabiy va hujjatli manbalar saqlanardi. Kutubxonadan qishloq ahli ham bemalol foydalangan; kitoblarning olinishi va qaytarilishini shaxsan Ibratning o'zi nazorat qilar, buning uchun maxsus daftar yuritilardi. Taassufki, 1918-1920 yillar alg'ov-dalg'ovlarda, keyinchalik 1937-yilgi qatag'onda kutubxonadagi ko'plab kitoblar yo'qotildi. Ibrat otasidan qolgan uch tanob (bir tanob, tahminan 36 sotikka teng; 3 tanob esa 1.08 ga) yerida istirohat bog'i tashkil etib, 150 tup xushmanzara daraxt ko'chati o'tqazdi, favvora qurdirdi va yevropacha usulda imorat barpo ettirdi. Boqqa kiraverishdagi ark tepasiga "Xush kelibsiz, Is'hoqiya bog'iga" degan so'zlarni yozib qo'ydi. Bog'ning turli yerlariga

adib qalamiga mansub tartibni buzmaslik, gullarni uzmaslik, daraxt va panjaralarga ziyon yetkazmaslik haqidagi kichik-kichik didaktik she'rlar osib qo'yilgan edi.

Is'hoqxon Ibrat yigirma yil davomida To'raqorg'on va Xonobod qishloqlarining qozisi lavozimida ishladi. Faoliyati davomida u har bir muammoni qonun va shariat doirasida odilona hal qilishga intildi, xalq manfaatini ko'zlab ish yuritdi.

1937 yil mart oyi boshlarida esa uni "sovetlarga qarshi targ'ibot"da ayblab qamoqqa olishadi. Yoshi 75ga kirganiga qaramasdan bir mashina kitobi bilan birga Andijon turmasiga olib ketildi. Qamoqdagi ruhiy, ma'naviy va jismoniy azoblarga chidolmagan Is'hoqxon Ibrat 1937 yil aprel oyida hayotdan ko'z yumadi. Hozirgacha uning qayrega dafn etilgani aniq emas.

Adib ijodiy merosiga e'tibor. Istiqlol yillarida Ibrat hayoti va ijodini o'rganish borasida katta ishlar amalga oshirildi. 2005-yilda taniqli adabiyotshunos olimlar Ulug'bek Dolimov hamda Nurboy Jabborov Is'hoqxon To'ra Ibratning "Tanlangan asarlar"ni nashr etdilar. Unda adibning ilgari ilm ahliga ma'lum bo'lmagan asarlari ham kiritilgan. Biz ham ko'rsatmani tayyorlashda Ibratning mazkur to'plamidan foydalandik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 2-noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda Is'hoqxon Ibrat haqida alohida to'xtalib, 2.2 gektar yerda adib muzeyi, Ibrat haykali, favvora, bog', 160 o'quvchi o'rniga ega tillar markazi, "Ibrat maktabi"ni tashkil qilish g'oaysini ilgari surishdi. Ushbu taklif jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, To'raqorg'on tumanida Is'hoqxon Ibratga bag'ishlangan so'lim bog', yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktabi" bilan tashkil etilmoqda. Bog' odamlarning mazmunli hordiq chiqarishiga qulaylik yaratish bilan ma'naviy olamini ham boyitadi. Bu yerda ma'rifatparvar bobomizning haykali o'rnatiladi. Muzey Is'hoqxon Ibratning hayoti, serqirra faoliyati bilan tanishtiradi. "Ibrat maktabi"da yoshlar xorijiy tillarni o'rganadi. Bularning barchasi yaxlit kompleks sifatida allomaning xalqimiz uchun qilgan buyuk xizmatlarini qadrlash, merosini o'qib-o'rganish va targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Adib qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Ibratning asl ismi nima?
3. Ota-onasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Ibrat qayerda ta'lim olgan?
5. Shoir hayotining eng ibratli jihatlarini nimada?
6. Zamondoshlari adib haqida nimalarni yozishgan?
7. Ibrat faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. Is'hoqxon Ibratning asarlari haqida ma'lumot bering.

9. Ibrat qaysi mamlakatlarda yashab, sayohat qilgan?
10. Ibrat qaysi xorijiy tillarni bilgan?

Adabiyotlar

1. Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият. 2005. 200 б.
2. Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Мерос. 1991.
3. Солижонов Й. Зулматдан нур қидирганлар. – Т.: Алишер навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхона нашриёти, 2007. –Б.6-14.
4. Tojiboyeva M. Milliy uygʻonish davri adabiyoti. – Toshkent. Mumtoz soʻz, 2017. – B.83-94.
5. www.ziyonet.uz kutubxonasi
6. www.jadid.uz Ibrat

2-mavzu: Is'hoqxon Ibrat – tilshunos va publitsist. Ma'rifatparvarlik, pedagogik va noshirlik faoliyati

Reja:

1. “Lug‘ati sittati alsina” asarida tilshunoslik mahorati.
2. “Jome' ul-xutut” asari haqida.
3. Ibrat – publitsist.
4. “Tarixi farg‘ona” asari
5. Pedagogik va noshirlik faoliyati

“**Lug‘ati sittati alsina**” asari. XX asr boshlarida Chor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi mahalliy aholi o‘rtasida rus tiliga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Rus-tuzem maktablari, “usuli savtiya” maktablari o‘lkaning katta-katta shaharlaridagina emas, balki qishloqlarda ham ochila boshladi. Bunday maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o‘qitilar edi. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg‘or fikrli kishilar o‘z farzandlarini shunday maktablarga bera boshladilar. Lekin o‘quvchilar, rus va xorijiy tillarni mustaqil o‘rganuvchilar uchun darslik va qo‘llanmalar yetishmas yoki yo‘q darajada edi. Toshkentdagi kitob do‘koni xo‘jayinlaridan birining “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida e‘lon qilingan quyidagi so‘zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “Shu kunlarda shaharliklar o‘rtasida rus tiliga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Toshkent kitob do‘koni xo‘jayinlaridan biri shikoyat qilyaptiki, o‘zbeklar, hech tinchlik bermayapti, ruscha o‘rganish uchun o‘zbek tilida yozilgan biror darslik bormi?” - deb so‘rab kelishaverib jonga tegdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yerli o‘troq aholining til o‘rganishga qobiliyati kuchli. Rus tili bilan bir qatorda o‘nga yaqin Sharq va G‘arb tillarini ancha mukammal bilgan Is’hoqxon Ibrat bu muhim masalada o‘z xalqiga yordam qo‘lini cho‘zdi. U olti tildagi: arabcha, forsa, hindcha, turkcha, o‘zbekcha va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sittati alsina” (Olti tilli lug‘at) nomli lug‘at kitobini yaratdi. Is’hoqxon to‘ra mazkur asarni yaratar ekan, birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni ko‘zda tutgan. Bu hol kitobning birinchi betidanoq ko‘zga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay bo‘lsin uchun rus so‘zlarini ham arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va Yevropa so‘zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab bo‘lsa-da, Ibrat bu ishni muvaffaqiyatli hal qildi.

Kitob qo‘lyozma holidayoq qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, nashr etilmasdanoq ziyolilar undan foydalanishga, ko‘chirib olishga muvaffaq bo‘lganlar. Rus tilini o‘rganish istagidagi o‘zbek ziyolilari, “usuli savtiya” maktablari o‘qituvchilari va o‘quvchilari bu

asarning yaratilishidan xursand bo'ldilar, ko'p nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutdilar. Kitob bilan qo'lyozmaligidayoq tanishgan shaxsning quyidagi so'zlari ham buni tasdiqlaydi: «Ushbu ovoni xayriyanishonda Namangan uyezdiga tobe' To'raqo'rg'on qozisi janob Is'hoqxon to'ra o'z tablaridan chiqarib, "Sittati alsina" degan olti tilli lug'atlik kitob tasnif qilib, bosmaxonaga yuboribdurlar. Mazkur olti lug'at: arabiy, forsiy, turkiy, sarti, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tashihlab ko'rub turubdurmiz. Albatta, oning bosilmog'iga ijozat berilib, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lug'atlari tashih va tag'yir bo'lindi. Xususan, rusiya lug'atlarini musulmoniya huruflari ilan yozmoq xo'b qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilg'on iboralarni ko'proq tag'yir berildi va mazkur "Sittati alsina" degan janob qozining ixtiro qilgan lug'at kitoblari, garchand kichik bo'lsa ham, bizning Turkiston viloyatimizda sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi. Binobarin, ul janob qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagan lug'at kitoblarini ko'rub, bosma qilmoqqa ijozat berilsa kerak, deb umid aylab gazetaga yozduk. Ul lug'atlarni ko'b ko'rib o'qidim. Aning uchun bu so'zni men to'qidim".

Olimning ushbu asari XIX asrning 90-yillari o'rtalaridayoq, muallifning chet el safaridan qaytib kelishi bilan tugatilgan bo'lsa-da, lekin mahalliy hokimlar asarlarni ta'qib ostiga olinishi, chor mustamlakachilari tomonidan Turkistonda o'rnatilgan qattiq nazorat(senzura) tufayli asar ancha kechikib - 1901-yili bosmadan chiqdi. Buni o'sha davrda chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri vazifasini bajaruvchi N.P.Ostroumovning shaxsiy arxivida saqlanuvchi hujjatlar isbotlaydi. Arxivda Is'hoqxon Ibratning N.Ostroumov nomiga yozilgan ikki maktubi saqlanadi. Birinchi maktub 1898-yili yozilgan bo'lib, unda Ibrat Ostroumovga lug'atni bosmadan chiqarishda yordam berishini iltimos qilib, murojaat etadi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz'ini yuboradi. Lekin ancha vaqtgacha asarni nashr qilish yoki nashr qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat 1900-yilning 26-fevralida ikkinchi marta rus va o'zbek tillarida xat bilan murojaat etishga majbur bo'ladi. Mazkur asarni nashr etishda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'sha ikkinchi maktub matni quyidagicha: "1900-yil 26-fevralda. Hurmatlu Ostroumov huzurlariga savolnoma: Ushbu barobarinda siz ulug' martabadan o'tunub so'raymanki, 1898-inchi yilda sizdan iltimos qilib edim, o'z tasniflarimdan olti til uzra "Sittati alsina" degan slovar kitobni bosma qilmoq uchun. Marhamat qilib, ikki juz' yuboring, ko'rmoq uchun, degan ekansiz. Darrov amrlariga muvofiq yuborib edim. Mazkurni(ng) hech xabari bo'lmagan jihatidan boz iltimos qilib turubmanki, agarda nozirlar nazoratlaridan o'tgan bo'lsa, qabulga olinsa, men qolgan o'n juz'ini ham yuborsam va yoki qabul bo'lmagan bo'lsa, o'shal

nusxani marhamat ilan Namangan mahkamasiga, maning ismimga adres etib yuborsalar, boz bo‘lak maslahat qilsak, deb iltimos qiluvchi Is’hoqxon to‘radurman”.

Ma’lumki, Chor hukumati o‘lka xalqlarining madaniy-siyosiy rivojlanishi-dan, milliy uyg‘onishdan, ayniqsa, yerli aholining mutaraqiy millatlar bilan muloqotda bo‘lishidan qo‘rqar, shu boisdan ham o‘sha davr uchun taraqqiyot kaliti hisoblangan rus tilini o‘rganishga qattiq qarshilik qilar edi. Shuning uchun ham Is’hoqxon Ibratning mazkur asari bir necha yil chorizm senzurasidan o‘ta olmadi. Bu ishda asosiy rolni chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri N.Ostroumov o‘ynadi. “Lug‘ati sittati alsina” bir necha yillik sarguzashtlardan so‘ng 1901-yili Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Is’hoqxon to‘ra ushbu asarni yaratishda ancha vaqt ilmiy ish olib bordi, chet ellarda bo‘lib, material to‘pladi. Asar kichik muqaddima bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asarni yaratish uchun bir necha yil material to‘plagani, keyingi avlodlarga “bir nishon” qoldirish maqsadida kitob holiga keltirgani, asarning tuzilishi, tartibi haqida gapiradi: “... sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida... bir lison safar ahlina yuz oltun barobarida ishladiki, biza mushohada bo‘lib, lisonlar tahsiliga ko‘shish edub va ham dahr ahlina bir nishon qoldirmak fikri-la bir necha muddati madid bu kitob tadvinina justujo‘ edub, bo‘yla bir kitob suratinda xalqg‘a namudor etdim va ham olti lisondan murakkab o‘ddug‘i uchun, «Lug‘ati sittati alsina» tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdum”.

Lug‘at olti tillik, ancha murakkab, o‘zbekcha so‘zlarning qarshisida arabcha, forsha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. U mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib, 53 betdan iborat, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism— alifbo tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik bobchalar ajratilgan. Bu qismda fe’llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval forsha, keyin arabcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha), hindcha va ruscha tarjimalari beriladi.

Is’hoqxon Ibrat mazkur asariga material to‘plar ekan, jonli tilda ko‘p qo‘llanadigan eng faol so‘zlarni kiritishga alohida e’tibor berdi. Unda iste’moldan chiqib ketayotgan arxaik so‘zlarni deyarli uchratmaymiz, lug‘atni keng xalq ommasiga tushunarli bo‘lgan arab yozuvida yaratdi.

Ma’lumki, Is’hoqxon Ibratga qadar ham ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, V.P.Nalivkin va uning rafiqasi M.Nalivkinaning “Русско-сартовский словарь”, “Сартовско-русский словарь” asarlari shular jumlasidandir. Lekin bu asarlardan kitobxonlar - rus tilini o‘rganishga qiziquvchilar unumli foydalana olmadilar. Chunki bu kitoblar rus yozuvida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilini o‘rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo‘lgan sanoqli o‘zbeklar uchun

mo'ljallangan edi. Shuning uchun ham bu asarlar rus tilini o'rganuvchi o'zbeklar ehtiyojini qondira olmadi.

Ibratning mazkur asarini arab yozuvida yaratishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. Mana shu muhim, nihoyatda murakkab masalaga o'zbek ma'rifatparvarlari orasida birinchi bo'lib u qo'l urdi va zamondoshlari talabini birmuncha qondirishga muvaffaq bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, lug'at muallifi zamondoshlaridan birining: "...Bizning Turkiston viloyatida sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi", degan so'zlari zaminida katta mazmun yotar edi.

“Jome’ ul-xutut” (Yozuvlar to‘plami) – yozuv namunalari ilovada keltirilgan.

Ibratning asarlaridan ma'lum bo'ladiki, insoniyat tafakkur qilishi, hodisa, narsa, predmetlarni ma'lum nom bilan nomlashi va yozuv insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega. Shuning uchun olim “Jome’-ul-xutut” nomli asarida yozuvlar tarixiga alohida to'xtalib o'tgan. Asarda ilk yozuvning paydo bo'lishi va takomili uzoq tarixga egaligi haqida aniq ilmiy fikrlarni ilgari suradiki, bu Ibratning yetuk tilshunos salohiyatidan darak beradi. Yozuv odamlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida tilga nisbatan ancha keyin shakllagan.

Aslida yozuv ham insoniyat madaniyat tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan ajratib bo'lmas darajada bog'liq. Shuning uchun ham yozuvlar tarixi bilan shug'ullanuvchi olimning zimmasida katta mas'uliyat bo'ladi. U kishilik jamiyati tarixi, madaniyati, qachonlardir aloqa quroli hisoblangan, keyinchalik o'lik holiga tushib qolgan tillar, yozuvlar bilan hamda jonli til va yozuv o'rtasidagi aloqalar bilan tanishmog'i zarur. Lekin tilshunoslikning mazkur eng qiziqarli, dolzarb, ayni zamonda juda murakkab sohasi yetarli o'rganilmagan.

Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Is'hoqxon Ibrat ancha mukammal “Jome’ ul-xutut’ (“Yozuvlar to‘plami”) nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarida muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi - piktografik yozuvlardan to so'nggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Olimning mazkur asari katta hajmda - 132 betdan iborat bo'lib, 1912-yili o'z bosmaxonasi – “Matbaai Is'hoqiya”da nashr qilindi. Is'hoqxon bu asarning yaratilish tarixi, ko'zda tutgan maqsadi, asarning nomlanishi haqida quyidagilarni yozadi: “Bul xatlarni(ng) boqiy va tariq qarori muddao bo'lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujibi:

Asardurki olamg'a o'lg'ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon,

mazmunicha botadvin aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazlu kamollarga manzur qilib, millatga nishon qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy

uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqini(ng) naf' olmog'i muddao bo'lib, adabiyi milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim. Millatimiz(ning) forsiylariga ikkinchi tab'ada forsiy qilinur va jami xatlarga jome' uchun "Jome' ul-xutut" tasmiya edub, o'z xatimiz va o'z tilimiz va o'z matbaaimizda tab' qilmoq maqsad bo'lib, tab'i sharif, ahli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim". Is'hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo'ldi. Asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi. Biz mazkur kitob ilovalarida adib sanab keltirgan oltita yozuv turidan namumalar va muallif qo'li bilan bitilgan turkiy-arabiy izohlarni keltirganmiz.

Ibrat faqat o'z vatanidagi yozuvlar namunalarini o'rganish bilan chegaralanmay, arab mamlakatlaridagi qadimiy yozuv madaniyatini ham o'rgandi. U eramizdan ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklarini, Kipr orolidagi g'orlardan topilgan yozuv qoldiqlarini o'z asariga jalb etdi. Ibrat yozuvlar tarixini o'rganar ekan, tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo'shni xalqlar: yahudiy, suriya, arab yozuvlari finikiya yozuvlari asosida vujudga kelgan, degan ilmiy xulosaga keladi. Muallif ushbu asarida arab yozuvlari tarixi, ularning rivojlanish evolyutsiyasiga alohida to'xtaladi. U o'z tekshirishlari natijasida quyidagi ilmiy xulosaga keladi: arab yozuvlari nabati xalqi yozuvlaridan kelib chiqqan bo'lib, VII asrdan boshlab ikki shaklda - ko'fiy va nash yozuvlari shaklida rivojlangan. Ko'fiy va nash yozuvlari asosida nisbatan sodda bo'lgan suls yozuvi yaratildi. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: "Xatti davrondan suryoniy chiqorib, suryoniydan ko'fiy chiqorib, ko'fiydan sulsni, sulsdan ta'liqni, suls ila ta'liqdan nasta'liq kitob xatimizdurki, 900-nchi hijriyda Eronda shahri Tabriz degan baldada Xo'ja Mir Ali Tabriziy chiqarganlar. Nasx ila ta'liqdan murakkab uchun nasta'liq ism qo'yganlar. Bu xat Arabistonda joriy emas. Hindiston va Buxoro, Turkiston, Farg'ona, Koshg'ar ahli islom oralarida joriydur. Bunga sabab bu mulklarga Eron podsholari(ning) ixtiloti bo'lub, Buxoro bo'laklarni olib, ul vaqtlarda joriy qilingan ekan".

"Jome' ul-xutut" dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavqe', rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllari haqida ma'lumot beradi va shu bilan birga, unda husnixat san'atiga oid fikrlar bildiriladi. Ibrat ushbu asarida rus tili bilan bir qatorda ingliz, fransuz, nemis, lotin kabi chet tillarini o'rganish ilm-fan va madaniyatni egallashda katta rol o'ynashini ham alohida ta'kidlaydi: «Dorixona borganda lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa,

inglizcha bo'lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkiston(lik)larga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar. Axbornoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo'lsa, o'ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozduradurlar, alarga juda zarur.

Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo'lub, binobarin, ehtiyoji xalqulloh hama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy".

O'z zamondoshlarini, ayniqsa, yosh avlodni rus va Yevropa tillarini o'rganishga da'vat etish uning mazkur "Jome' ul-xutut" asarida alohida o'rinni egallaydi. Is'hoqxon o'z salafлари - ma'rifatparvar shoirlar, olimlar an'alarini davom ettirib, Rossiyaning O'rta Osiyoga qarshi olib borayotgan bosqinchilik siyosatini qattiq qoralaydi. Jamiyat hayotiga kirib kelayotgan ilm-fan va madaniyatni, o'quv-tarbiya tizimidagi ilg'or metodlarni, ayniqsa, Ismoilbek Gasprali tomonidan asoslangan usuli savtiya metodini hayotga tatbiq etishga intildi. Is'hoqxon asarni yozishdan asl muddaosini quyidagicha bayon etadi: "...Bu namunalardan mudaa'o buki, har asrda bir olam tabodul bo'lib, asr o'zgarib, olam, odam, ashyolar - hamma narsa tabodul bo'lmog'i bizga bir sarxatdur. Bunga qarab ibrat olib ish tutmak darkor. Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul. Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat bo'lur ekan. Shul o'ttiz yil(ga) bir nazar qarasak ko'b farqlar bor".

Is'hoqxon zamon hamisha o'zgarib, yangilanib turishini alohida ta'kidlaydi. Millatdoshlarini zamondan, taraqqiydan orqada qolmaslikka chaqiradi. Muallifning quyidagi so'zlari bunga dalil bo'la oladi: "Madaniyat xotiraga o'xshagan yangi taomil, yangi so'z, yangi xat joriy bo'lib, eski nimarsalar, diniy ishlar, bo'laklari hammasi bilkul qolib, yangi yurib ketar ekanlar... Uyingizda hozir turubdur ayon... chunonchi: chiroq qoldi - lamfa (chiqdi), chaqmoq qoldi - gugurd(chiqdi)... choyjo'sh qoldi - choynak(chiqdi), qumg'on qoldi - samovar (chiqdi) va hokazo yangi nimarsalar ko'b joriy bo'lib qolgan".

Is'hoqxon Ibrat o'zi yashab turgan zamonda ilm va fan, maorif va madaniyatning birmuncha rivojlanganligini mazkur asari "Jome' ul-xutut"da zo'r mamnuniyat bilan qayd etadi. U bunday rivojlanishni o'lkaga ilg'or madaniyat va fanning kirib kelishida deb tushundi. Ibrat o'z davrini xonliklar davri bilan taqqoslar ekan, ilmlı kishilarning ancha ko'payganidan mamnun bo'ladi: "Asrimiz madaniyati bor edi... Chunonchi, otash aroba, telegram, telefon, elektr fonarlar, necha xil uchadurgan ayruflon, gramafon, litograf, tifograf, anvoyi mashinalar, aftomobel, velosifid, tilsiz telegramlar, necha-necha ashyoviy jadidalar, anvoyi adidalar hammasi mavjud edi".

Is'hoqxon Ibratning jahon yozuvlari tarixiga bag'ishlangan mazkur "Jome' ul-xutut" asarining nashr etilishi o'zbek matbaachiligi, madaniyati tarixida, yozuvlar

tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu haqda asarga so'ngso'z yozgan muharrir Husain Makayev quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Eski osor va eski zamonlardagi millatlarning, xususan, Sharq xalqlarining xat va yozuvlari ila tanushlukni xohlagan ilm va fan havaslilari uchun, xususan, islohi huruf masalalari kabi g'oyat muhim mubohasalar jarayon etgan bu zamonda ushbu kitobda to'blanmish necha xil eski yozuvlar bu masalani ayrucha diqqatga sabab bo'lsalar kerak. Fozil Is'hoqxon to'ra hazratlarining ko'b ijti hodlar sarf etib, vujudga keltirgan bu xat nusxalarining sharhindagi kitobati ila matbaani(ng) ba'zi qusurlaridan qat'i nazar, sanoyi nafisadin bo'lgan eng eski yozuvlarni bizga umrlikka bir asar qolduruvchi bu kitobning Turkistonda nashr qilinuvi bizning uchun o'zi bir sharaf deb bilam. Ammo millat uchun ahamiyatlik yoki ahamiyatsizligi haqidagi tanqid va fikrlarni ilm va fan hurmatina ahli qalam, fan suygan odamlarning diqqatlariga topshiram”.

Shubhasiz, Is'hoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim ekanligidan dalolat beradi. Is'hoqxon madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning “San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” va “Jome' ul-xutut” asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning zamondoshi Ibrohim Davronning tasdiqlashicha, Is'hoqxon zo'r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir, u bu sohada yaratgan “shoyon bir san'ati (asari)” uchun 1907-yili katta mukofotga sazovor bo'lgan. Bu haqda Ibrohim Davron quyidagilarni yozadi: “U (Is'hoqxon to'ra) ham xattoti a'zamdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdan o'n yetti nav' yozuv birla qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasidan namunai zoti, demakki, shoyon bir san'ati o'tgan yil 1907-yilda janobi Turkiston ginirol-gubirnatorig'a taqdim qilinib, shoyistaliqiga ikkinchi daraja pocho'tnoy xalat(pochyotnash xalat) olgan edilar”. Is'hoqxon Ibrat bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi. U ko'plab Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlari bilan tanishgan. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, uning shaxsiy kutubxonasida rus va o'zbek tilidagi mahalliy gazeta, jurnal boylamlari sharqshunos olimlarning o'nlab asarlari bo'lgan. Bular Ibratning Yevropa tillari va adabiyoti, rus va jahon sharqshunoslarining ilmiy asarlari bilan qiziqqanligidan, ularni mukammal o'rganganligidan dalolat beradi.

Is'hoqxon chin qalbdan o'z xalqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimini, kuch-g'ayratini ayamadi. 1916-yili yozilgan “Tarixi madaniyat” asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo'lmish “Devoni Ibrat” she'rlar to'plamini yaratdi.

Ibrat publitsist (maqolalar ilovada keltirilgan). Publitsitika o'zbek adabiyoti uchun yangi yo'nalish bo'lgan bo'lsa-da, u hozirjavobligi bilan tezda jadidlar orasida katta shuhrat qozondi. Ibrat o'z davrining olamni ko'rgan va xalq oydini sifatida ijtimoiy madaniy hayotda ham faol bo'lgan. Xususan, uning publitsistik maqolalarida millat va jamiyatning qator ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy muammolari haqida fikr yuritilgan.

Jumladan adibning dastlabki maqolalari boshqa ma'rifatpartvarlar qatorida «Turkiston viloyatining gazetisi»da e'lon qilina boshlandi. Aslida ushbu gazeta mustamlakachi tuzumni mahalliy xalq orasidagi siyosatini tezlik bilan amalga oshirish, aholini ruslashtirish, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan axborot ostida ushlab turish niyatida tashkil etilgan bo'lsa-da, bir qator o'zbek ma'rifatparvarlari, jumladan, Ibrat ham gazetada o'zining qator maqsadlarini ayta olgan. Olimlar U.Dolimov, N.Jabborovlar to'plagan va adib qalamiga mansub 45 maqoladan, 35 tasi shu gazeta sahifalarida bosilib chiqqan.

Ibrat publitsistikasining asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil qiladi. U dastlabki maqolalaridan boshlab mehnatkash xalq boshidagi og'ir mustamlaka zulmini fosh etishga, xalqni ma'nun uyg'otishga harakat qildi. YAngicha «usuli savtiya»—«usuli jadid» maktablarini ochish va bu maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yaratish ishiga alohida ahamiyat berganligi sababi ham shunda. Bu yo'nalishdagi harakatlar ommaviy tus oldi. YAngicha ma'rifatparvarlik darajasiga o'sib chiqdi, doirasi kengaydi.

Ishoqxon Ibrat «usuli savtiya» maktablarini tashkil etish, ularni darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. «Matbaai Ishoqiya»da shunday darsliklar va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirdi. «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy», «Ilmi Ibrat» va boshqalar shular jumlasidandir.

Uning publitsistik maqolalari va munozaralarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Ishoqxon Ibrat bilan Toshkent shahar Sebzor dahasidagi eski maktab-dor Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li o'rtasidagi munozara ushbu fikrni quvvatlaydi. Bu munozara «Turkiston viloyatining gazetisi»ning 1907 yilgi bir necha sonlarida bosilib chiqdi. Mulla Husanxo'ja domla o'z maktabini yengil-yelpi isloh qilib, «jadid maktabi» deb e'lon qiladi. Ko'plab bolalarni o'z maktabiga targ'ib etadi: «Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li ushbu 1907 yilni(ng) birinchi sentyabridan boshlab biz sartiya bolalariga o'qitadurg'on usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibig'a olib, jamoa-jamoa qilib o'qitadur. Charoki, mazkur tariqa tartibida maktab bolalarini(ng) tez fursatda savodlari chiqib, ko'b foydalar hosil bo'lur ekan. YAna shulki, bul tartibni(ng) hech nimarsaga moneligi bo'lmas ekan. Sabab shulki, beshinchi jamoa birlan tamom bo'lur ekan. Birinchi jamoa «Hafti-yaki sharif», ikkinchi jamoa «Kalomi sharif», uchinchi jamoa «CHahor kitob» bilan «Fuzuliy» yoki «Navoiy», to'rtinchi jamoa «Ilmi faroyiz»

o'qub, tamom qilib, muddati ikki yil yoki uch yil miyonasida madrasalarda o'qimoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib o'qimoqqa qodir bo'lur ekanlar».

Yuqoridagi so'zlardan ma'lum bo'ladiki, Mulla Husanxo'ja o'z maktabini «isloh» qilib, hech qanday ijobiy o'zgarish kiritgani yo'q (jamoajamoa qilib o'qitishdan tashqari). Vaholanki, bu paytda «usuli savtiya» metodi asosida Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval» alifbo darsliklari nashr etilgan, yangi o'qituv metodlari vujudga kelayotgan edi. Is'hoqxon to'ra Ibrat «jadid maktabdor» Husanxo'ja domladan ranjiydi, uning maktabini xalq bolalarini aldash uchun, ko'proq bolalarni jalb qilib, katta daromad olish uchun ochilgan maktab deb hisoblaydi. Mulla Husanxo'ja domla o'zining «Toshkand musulmon maktablari haqida» maqolasida qadim (eski) maktablarni targ'ib etib, yangi usuli savtiya maktablarini tanqid qiladi va eski maktablarni usuli savtiya maktablaridan ustun qo'yadi. Shu bilan birga, u eski maktablarni nomiga isloh qilish, ya'ni o'quvchilarni kaltak bilan jazolash usulini bekor qilish, o'quvchilarni aniq reja asosida jamoajamoa (yoshi e'tiborga olinib sinflarga ajratib) qilib o'qitish va davomatni tartibga solish shiori bilan chiqdi.

Bu isloh o'quv-tarbiya saviyasini oshirishda sezilarli natija bermasligini ta'kidlagan Is'hoqxon to'ra Ibrat shunday yozadi: «Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasi-la besh-o'n sanalar osmonga qaratib, «alif bazavar, bezavar» deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o'quv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqqa taqviyatgina bo'ladur» .

Xalq farzandlarining o'n-o'n besh yillab maktab va madrasa tuprog'ini yalab, oxiri savodsiz yoki chalasavod bo'lib chiqishlari Ibratni iztirobga soldi. U bunday maktablar o'rnida yangi, zamona talabiga javob bera oladigan, zamonaviy ilmlar o'qitiladigan maktablar barpo etish shiori bilan chiqdi. Eski maktab o'qituvchilarining johilligini, avlodni tarbiyalashga, bilim berishga qodir emasligini ta'kidlaydi.

Is'hoqxon Ibrat mazkur maqolasida «usuli savtiyai tadrijiya» metodini targ'ib qilar ekan, u birinchi navbatda, o'z amaliy faoliyatiga, yangi ilg'or pedagogika yutuqlariga suyandi.

Yuqorida aytilganidek, Ibrat 1886-yildayoq eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktab ochdi. Keyinchalik uni yanada takomillashtirdi. Bu maktabda qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida - yorug', derazali xonaga joylashgan bo'lib, yangi o'quv qurollari – parta, stol-stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, qora taxta (doska), kurrai arz (globus) kabilar bilan jihozlandi. O'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Is'hoqxon Ibrat o'z maktabida darslik va qo'llanmalar sifatida Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Ali Asqar Kalininning «Muallim

us-soniy», Munavvarqorining «Adibi avval» darsliklaridan, o'zi yaratgan «Lug'ati sittati alsina», «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» asarlaridan foydalandi.

Is'hoqxon Ibrat yangicha ta'lim-tarbiya tizimining afzalliklarini isbotlashda ko'proq o'zi erishgan yutuqlarga, amaliy faoliyatga o'zi tatbiq qilgan yangi usullarga asoslandi. Mutafakkirning quyidagi fikrlariga e'tibor bering: «Men o'zim ham o'zimga qarashlik o'nta-o'n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafidan... bir mulla (Husayn Makaev) jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig'a uch oy bo'lgan yo'q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o'n-o'n beshta odamlar «alif nima?» degan savolina «kaltak» deb javob beruvchilar tamomi savodi chiqib, har narsani yozadurgan bo'ldilar. To'rt-beshta yetti va sakkiz sanalar Qo'qonda yurub, hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomihi arabiy mukolamag'a qodir bo'lub, har bir kitoblarni mutolaa etadurgan bo'ldilar. SHul sababdin biz tajriba qilib, bul o'qutishga (usuli savtiyaga) tamom ixlos qildik» Is'hoqxon Ibrat ilg'or maktabdor sifatida o'z maktabida haftalik dars jadvalini joriy qildi. Bu haqda uning sobiq o'quvchisi Mirzaboy G'iyosov shunday deydi: «Biz maktabga oldindan tuzib qo'yilgan haftalik dars jadvali bo'yicha darslarga tayyorlanib kelar edik. Har bir darsdan keyin tanaffus bo'lar edi».

Jadidchilik harakatining Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat kabi namoyandalari Vatan va millatni yuksak taraqqiyot darajasida ko'rishni orzu qildilar va bu orzularini amalga oshirishning birdan-bir yo'li sifatida maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish masalasiga butun kuch-g'ayratlarini, bilimlarini safarbar etdilar. Ular o'z faoliyatlarini bir-birlaridan ajralgan holda emas, o'zaro hamkorlikda, hammaslaklikda, yaqin aloqa bog'lagan holda yo'lga qo'yidilar. Munavvar qori Abdurashidxonov Behbudiyning «Oyna» jurnali va «Samarqand» gazetasida o'z maqolalari bilan qatnashsa, Is'hoqxon to'ra Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan «Sadoyi Turkiston», Farg'onadagi «Sadoyi Farg'ona» gazetalarida faoliyat ko'rsatdi. U Munavvar qori taklifiga binoan bir necha marta Toshkentda, uning maktabidagi imtihonlarda qatnashgan.

Munavvar qori Is'hoqxonga maxsus taklif xati bilan 1907-yilda murojaat qiladi: «Hurmatlu Ishoqxonhoji janoblarina! 1907-yil may oyindan e'tiboran Toshkentda Tarnovboshi mahallasida «Xoniya» maktabinda talabalarni yillik imtihonlari boshlanur. Siz hurmatludan rajo qilurmizki, tavobiingizda bo'lg'on usuli jadidiya maktablari muridlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo'lur edilar. Muhibingiz Munavvar Qori, 15-mart 1907-yil».

Bu taklifga binoan Is'hoqxon Ibrat o'z yaqinlari Husayin Makaev (Is'hoqxon Ibrat ochgan maktabda dars bergan tatar muallimi, 1910-yildan «Matbaai Ishoqiya»da mudir vazifasida ishlagan) va shogirdi Mulla Iskandar domla Abduvahob o'g'li bilan

1907-yili bir necha oy Toshkentda bo'ldi, «usuli savtiya» maktablarida Munavvarqori joriy et-gan imtihonlarda ishtirok etdi. «Usuli jadid» maktablari bilan bir qatorda xususiy «usuli qadim» maktablarida ham bo'ldi. Turkistonning ilk matbaachilaridan biri Is'hoqxon Ibrat o'zining bu amaliy faoliyati bilan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ilg'or ma'rifatparvarlar g'oyalarini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi.

“Tarixi Farg'ona” (ilovada asarning birinchi sahifasi keltirilgan). Is'hoqxon Ibrat tarixchi olim sifatida o'z ilmiy-tarixiy asarlarini yaratishda Sharq tarixnavislari asarlarini o'rganib, ulardan unumli foydalandi. Rus va Yevropa sharqshunos olimlari-ning o'nlab ilmiy asarlaridan, ko'plab tarixiy manbalardan istifoda etdi. Kerakli o'rinlarda ulardan ko'chirmalar keltirdi. Muallif mazkur asarlarini yaratishda G'arb sharqshunoslarining tarixiy asar yozish metodini qo'lladi. Bu, ayniqsa, uning asar yaratish uslubida, tarixiy voqealarga munosabatida yaqqol ko'rinadi.

Is'hoqxon Sharq tarixchilarining ilmiy asarlarini o'rganar ekan, bu asarlarga va ularning mualliflariga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Ayniqsa, o'z salaf-lari tomonidan xonlarga bag'ishlangan, ularning qonli urushlarini maqtab, mubolag'a qilib yozilgan asarlarni, xonlarga va beklarga bag'ishlab yaratilgan dostonlarni tanqid qildi. Shu nuqtai nazardan, Ibratning quyidagi so'zlari uning tarixiy asar yaratishdan ko'zda tutgan maqsadini yaqqol ifodalaydi: «Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroiy bo'lub, jug'rofiy, madaniy yoki sanoiy bo'lmay, faqat xonlarning urushlari birla ado qiladurlar. Binobarin, men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maqtab va aqlning kosasiga sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zi xurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasig'a sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko'proq yozdim... Bu “Tarixi Farg'ona”ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta'mai tiriklik yo'lid-an bo'lmay, balki bani basharni(ng) tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurganlar o'tganlarni(ng) turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamonni torozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur”.

Olimning tarixiy asarlarga bunday to'g'ri munosabatda bo'lishi, xalq hayotini haqqoniy aks ettirishga intilishining asosiy omillaridan biri muallif Sharq tarixnavislari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunos olimlarining asarlarini chuqur o'rganganligidadir. Rus va Yevropa tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat sharqshunoslarning asarlarini originalda o'qigan.

Ibrat o'z ilmiy asarlarini yaratishda taniqli sharqshunoslar V.V.Radlov, V.V.Bartold, H.Vamberi asarlaridan foydalandi hamda ularlarga o'z munosabatini bildirdi. Masalan: “Sulton Sodiq Bug'roxon amri bilan nazm “Qutadg'u bilig” degan tarix Yusuf Hojib tarafidan uyg'urcha-o'zbek tilida yozulub, ani Radlov ruscha,

turkcha, nemischa ko‘b jildda tab’ qilgan. Mundan boshqa islomdan avval bo‘lgan asarlar Farg‘onada matruk bo‘lgan, bu sababdan hozirda islomdan avvalgi holi bizga qorong‘u... Bartold degan Peterburgdan kelib, munda yurub, necha vaqtlar muomala va ma'lumotlar olib ketgan edi. Mana, tarix qilib, matbuotda nashr bo‘ldi. Ko‘b kishilar foyda ko‘rub turubdilar va so‘nggidan Vamberi degan Xitoyiston Koshg‘arini aylanib chiqib, ko‘b tarixlar nashr etdi, bizga tarix bo‘lub turubdur. Bularni ko‘rganda, bizga nega o‘z mamlakatimizning hamma ishlaridan avlodi basharga bir nishona qoldurmaduk degan afsus bor”.

Is’hoqxon Ibrat tarixiy asarlarini yaratishda V.Nalivkin asarlaridan, ayniqsa, “Краткая история Кокандского ханства” (Qozon, 1886) asaridan keng foydalandi, ko‘p o‘rinlarda unga tanqidiy munosabatda bo‘ldi. Is’hoqxon ilmiy- tarixiy asarlarini yaratishda katta mas’uliyat his qildi, tarixiy voqealarni, faktlarni obyektiv baholashga alohida e’tibor berdi.

Ibrat XIX asrning birinchi yarmi – Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davr to‘g‘risida gapirar ekan, o‘zbek xalqi hayoti, madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan 1842-yilgi mudhish voqealarni chetlab o‘ta olmaydi. Ma'lumki, Buxoro amiri Nasrullo xuddi shu yili Qo‘qonga bostirib kirib, shaharni talagan va xalqni xonavayron qilgan edi. Is’hoqxon o‘zining “Tarixi Farg‘ona” asarida buyuk shoira, mutafakkir, davlat arbobi Nodirabegimning hayoti va faoliyati haqida ancha qiziqarli, shu bilan birga, o‘sha mash’um voqea shohidlari fikr-mulohazalarini keltiradi, Nasrulloning Qo‘qonda uyushtirgan qirg‘iniga alohida to‘xtaladi. Muallif, ayniqsa, Nodira va uning norasida nabiralarining amir Nasrullo tomonidan o‘ldirilishi voqeasini yozar ekan, o‘zining hayajonini, Nasrulloga bo‘lgan nafratini yashira olmaydi. Asarda muarrix qatl etilgan norasida farzandlar onasining amirga nafrat bilan aytgan quyidagi so‘zlarini keltirgani ham ushbu fikrni quvvatlaydi: “Ey zolim! Otasi senga osiy bo‘lgan bu norasida nima gunoh qildi? Berahm zolim, qizil qonga bo‘yading. Sen ham mendek nuri chashmingdan ajrab, xonavayron bo‘l!” — deb alfoz ila og‘ziga nima kelsa qaytarmay, amirni hech pisand qilmay turganda, oni yaqinlarini(ng) hammasini so‘ydirgan ekan”.

Is’hoqxon mazkur voqealarni bayon qilar ekan, faqat o‘z taassurotlarini yozish bilan cheklanib qolmadi. Ayni vaqtda o‘sha davr shoirlarining bu mudhish voqeaga bag‘ishlangan tarixlaridan, marsiyalaridan namunalar keltirdi. Bu esa asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan.

Muarrix Amir Umarxon saltanati davrini qalamga olar ekan, uning shoirlik iqtidoriga yuqori baho beradi, uni “jannatmakon”, odil xon sifatida ta’riflaydi. Umarxon davrini ilm-fan, madaniyat va adabiyot-san’at rivojlangan davr sifatida baholaydi. Uning saroyida ijod qilgan Fazliy Namangoniy, Sultonxon to‘ra Ado,

Hijlat, Afsus, Gulxaniy, Maxmur, Hoziq, G'oziy, Nodir kabi shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Adib asarda Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyatini xronologik izchillikda bayon qiladi. Ayniqsa, Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxon davriga, uning xon sifatidagi faoliyatiga, qipchoq qirg'ini voqealariga alohida to'xtaladi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va u keltirgan fojialarga keng o'rin beradi.

Is'hoqxon Ibrat ham muarrix olim sifatida "Tarixi Farg'ona" asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor berdi. Amir Nasrulloning 1842-yili Qo'qondagi mash'um qatli om uyushtirishiga qarshi chiqib, Qo'qon xonligi bilan birlashish va yaqinlashib kelayotgan rus bosqinining oldini olish taklifi bilan amir vazirlaridan biri Abdusamad chiqadi: "Xonni (Muhammad Alixonni) bog'lab amirga olib borganda, amir darhol qatlg'a hukm qilganda, o'z vazirlaridan Abdusamad noyib degan xushmand kishi amirga: "Janobi oliylarig'a maloli xotir bo'lmasa, bir kalima so'z aytsam", deganda, amir: "Nima so'zdur?" degan ekan. Aytubdurki:

"Holo Xo'qand zabt o'ldi, Farg'ona katta mamlakatdur, qancha askar va sipohu xazina sarf o'lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahalliy xavfdur, agarda xonni qatl etib, tavba qildurub, Xo'qandg'a quyub, Buxorog'a tobe' qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo'lur edi", deganda, so'zi amirga ma'qul bo'lmay, og'ziga kafsh bilan urdurg'on ekan". Afsuski, Amir Nasrullo kabi kaltabin, burnidan narini ko'ra olmaydigan podshohlarimiz ham bo'lganki, Is'hoqxon Ibrat Amir Nasrulloning bu yaramas qilmishini qattiq qoralaydi.

O'rta Osiyo bosib olinishi natijasida mustamlaka o'lka rivojlanib kelayotgan Rossiya to'qimachilik sanoatini paxta bilan ta'minlovchi xomashyo bazasiga aylandi.

Is'hoqxon Ibrat geograf olim sifatida "Tarixi Farg'ona" asarida Farg'ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning to'la geografik tavsifnomasini beradi, ularni o'rab turgan qo'shni davlatlar, tog'lar, o'lkadan oqib o'tadigan daryolar, iqlimi, havosi, yerlari, hayvonot dunyosi, vodiya yashaydigan xalqlar, ularning hunarmandchiliklari, ekinlari, savdo-sotiq ishlari va yer osti qazilma boyliklariga atroflicha to'xtalib o'tadi.

Muallifning yana bir katta yutug'i shundaki, u o'z asarini sodda, o'sha davr adabiy til me'yoriga to'la rioya qilgan holda yaratgan. Uslubi, tasvirlash doirasining kengligi jihatidan "Tarixi Farg'ona" Boburning buyuk "Boburnoma" asari ta'sirida yozilgani sezilib turadi.

Is'hoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon" kabi asarlarida ham o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. U chet el sayohati vaqtida texnika va madaniyat rivojlangan shaharlarda bo'ldi. Turkiston

shaharlarining ham madaniy shaharlar qatoridan o‘rin olishiga ishondi. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo‘lini ilm-fanda, o‘qish-o‘rganishda, deb bildi: “Bizning Rusiyada Petrograd, Maskov, Ades (Odessa) va shunga o‘xshash shaharlar bor. Fransiyada (Yevropada demoqchi) Faris, Berlin, Vena va Madrid, London, Rumo, Vashington, Sharqda Tokio, Istanbul. Mundan bo‘lak necha-necha shaharlar bor, o‘zi kichkina bo‘lsa ham madaniyat topgan. Bu madaniyat shaharlari madaniyatni nima birlan topgan? Ilm birlan, o‘qub... Madaniyatni topadurgan va yurguzadurgan asbobi ilm ekan”.

Garchi mazkur fikrlar XX boshlarida angragan bo‘lsa-da, bugungi XXI asr uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani e‘tiborga molik. Umuman olganda, Is‘hoqxon Ibratning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

“**Mezon uz-zamon**” asari Ibrat ijodiy merosida alohida o‘rin tutadi. Asar nomiyoq e‘tiborni tortadi - zamon tarozusi. Olim bu asarida zamondagi evrilishlar va ularga millatdoshlarining munosabati masalasiga diqqatni qaratadi. O‘z ta‘biri bilan aytganda, bu mezon ila u o‘z asrini tortadi. Chunki, “avvalgi zamon va keyingi zamonlarni(ng) bo‘lak tarozusi bor”.

Asar shartli ravishda to‘qqiz mezondan tashkil topgan. Har bir mezonda muayyan masala tahlil etiladi. Jumladan, birinchi mezonda yangi paydo bo‘lgan narsalarga munosabat masalasi tahlil etiladi. Adib arzimagan narsalar ustida janjal qilib yurgan ulamo va fuzalolarni ummat va millat xizmatini qilmoqqa chaqiradi. Ulamo, fuzalo va oddiy xalq nafs xizmatiga kirib, dunyo qilmoq, imorat qurmoq, hasham, nafs aldovlariga muhtalo bo‘lishgan. Millatga, ummatlarga xizmat degani nima desang bilishmaydi. Uni qilsa harom, buni qilsa makruh, bu mustahab bu muboh deya arzimas narsalar ustida tortishib, oralarga nifoq solishadi degan fikrlarni aytadi. Undan ko‘ra odamlarning og‘irini yengil qiladigan ilm yutuqlarini to‘g‘ri qabul qilish va xalq, millat manfaati uchun ularni joriy qilish lozimligini ta‘kidlaydi.

Ikkinchi mezonda esa kishilar ahil va inoqlikda yashashlari lozimligi Qur‘on oyatlari asosida isbotlanib, ittifoqqa, xalqni ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashtirishga undalgan. Surai «Hujurot»da ayturki: Innamal-mu‘minuna ixvatun faashu bayna axavaykum” (Mo‘minlar bir-birlariga nisbata do‘st, birodardurlar. Agar nifoq bo‘lsa, ularni sulh bilan yarashtiringlar, deyilur. Va yana “surai “Baqarada” Val fitnatu ashaddu min al-qatli (ikki kishi orasiga fitna solmoq odam o‘ldirmoqdan ham og‘ir jinoyatdir).

... Chunki yolg‘onchi nifoqni oshkor qilur. Surai “Niso” da aytur: ya ayyhan-n-nasu-t-taqu robbakumu-l-laziy xolaqokum min nafsin vohidatin” (mardumlar, Sizni Yaratgan zotdan qo‘rqinglar, u sizlarni bir ota va bir onadan yaratdi, otangiz Odam, onangiz Havodur. Bas, hamalaringiz bir kishining farzandi: o‘g‘ul-qiz, og‘a-ini. Bir-birovingizga muxolafatda bo‘lmang. Ittifoq – bir til, bir jon, bir tan va bir jihat

bo‘lunglar”. Mazkur insonparvarlik tamoyillar bashar olamining asosini tashkil etishi bilan XXI asrda ham dolzarb masala hisoblanadi.

Uchinchi mezonda esa amal va niyatlar xolisligi, manfaat va nafsoniyat yo‘lida savdo, kelishuvda adolat bo‘lishi haqida fikr yuritadi. Shu yerda sudxo‘rlik va uning salbiy oqibati haqida so‘z aytadi. “Ag‘niyolarimizda yuz so‘m aqchani faqirlarg‘a yillik 25 so‘m fiydag‘a berur, bay’ joiz deb xiylai shar’ ila. Faqir ojiz bo‘lganda biddilar: amluk, ayoshsi yo‘q – kuyadurgon. Ani darhol o‘z-o‘ziga zakot qiladur. Kerak ediki, qo‘liga naqd aqcha berib olmoq. Yo‘q zakot. Deyilur. (Odamlarga foyda olish maqsadida pul berib, tezda qaytarib olib, buni zakot qildim deb xiyla qilishadi).

To‘rtinchi mezonda ilm, badaviyat va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Beshinchi mezonda xalqimizning avvalgi harakatlari va yangi zamondagi ishlari xususida bahs qilingan.

“Asrimiz ilmu hunar, harakat asridur, - deb yozadi adib, - turmoq asri emas. G‘ofil tursa, g‘aflat uyqusidin turguncha, bozori olam o‘tub ketadur. O‘r(g)anmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar!”

Oltinchi mezonda aholimiz orasida Xudo va payg‘ambar buyurmagan mashaqqat va sarflarga duchor bo‘lub, rasm-rusum, urf-odat deya ortiqcha sarf-hajatga yo‘l qo‘yishlik haqida fikr bildiriladi. Kalta o‘ylik, fikrsizlik illatlarining da’vosi qandayligi haqida yo‘l-yo‘riq beriladi.

Yettinchi mezonda esa zamon ahliga xizmat qiladigan faollik, o‘qituvchilik, ta’lim olish, oilaga ta’lim-tarbiya berish haqida so‘z yuritiladi. Hech kim zamon va hukmlarga qarshi ish qilishga qodir emas, shuning uchun zamon yangiliklari, talablari doirasida yaxshi tomonga intilib yashash lozimligi uqtiriladi.

Sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar xususida, o‘sha davrdagi odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning yomon oqibatlari haqida. To‘qqizinchi mezonda o‘tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi. Muhim xulosalar chiqariladi.

Mazkur asar oxiriga yetmagan, ya’ni tugallanmagan bo‘lsa-da, u Is’hoqxon Ibratning ijtimoiy tafakkuri, hayotiy qarashlari ichida yetakchi o‘ringa ega. Ayniqsa, XXI asrning ikkinchi o‘y yilligida ham kishilarimiz orasida urf bo‘layotgan turli ijtimoiy illatlar, shaxsiyatparastlik, ilmga emas boshqa narsalarga ruju qo‘yish kabi muammolarni bartaraf etishda katta ahamiyatga egadir.

Savol va topshiriqlar

1. Is’hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid qanday asarlarini bilasiz?
2. “Lug‘ati sittati alsina” ning tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

3. Asar qachon yozilgan?
4. Asarning nashr qilinishiga oid qanday ma'lumotlarni bilasiz?
5. "Jome' ul xutut" asari haqida qanday tushunchaga egasiz?
6. Asarda qancha yozuv haqida so'z yuritiladi?
7. Adib yozuvlar tarixiga murojaat qilishidan maqsad nima edi?
8. Ibratning qaysi maqolalarini bilasiz? Ular nima haqda edi.
9. Adibning shu paytgacha qancha maqolasi borligi aniqlangan?
10. Ular qaysi gazeta va jurnallarda e'lon qilingan?
11. Ibratning pedagogik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
12. Adibning noshir faoliyati so'zlab bering

SHOIR IJODIDAN NAMUNALAR

Gʻazal, murabbaʼ va masnaviylar

XUSH KELDINGIZ

Sarv boʻyluq xush qadam raʼno sifat, xush keldingiz,
Yurishing tovu kibi barno sifat, xush keldingiz.

Lablaring shahdu shakar, oq tishlaring durdonadur,
Koʻzlaring bodomi tar Laylo sifat, xush keldingiz.

Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt,
Nuri diydami, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz.

Umringiz boʻlsun daroz ham baxtingiz boʻlsun kushod,
Oxuni barno bilan qoʻsha qaring, xush keldingiz.

Oʻn toʻrt oʻgʻil, yetti qiz bersun Xudovandi jahon,
Uning, oʻsing, ey boʻtam, kelin oyim, xush keldingiz.

Qaynotangiz davlatin Sizga nasib etsun egam,
Toleing boʻlsun baland, yonsun chiroq, xush keldingiz.

* * *

Dunyo aylab safarlar, topmadim xoʻb orqadosh,
Hasrati dilni deyolmay, hech etmay sirni fosh.

Asrimiz insonlariga boʻlmadi bir dardkash,
Kimni soʻrsang suhbat aylar sanda boʻlsa nonu osh.

Hech vaqti teng kelurmu husnida ham quvvati,
Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh.

YOshlar bazmu taashshuq suhbat gul chehralar
Birla doim ijtirodu qarilar koʻzida yosh.

Boʻlsa sanda siymu zar, har kim qilur ulfatchiliq,
Qayda boʻlsang suhbatingni aylagaylardi talosh.

Faqirliqsa aylamaslar majlisingni orzu,
Soʻzlama dahr ahliga, Ibrat, solib ogʻzingga tosh.

QALAYSIZLAR

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?
Bu tiriklik yili bug‘doyu unlardan qalaysizlar?

Hamani qo‘ymadi o‘z holig‘a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?
Jahon hech kimga gardish etmadi iqbolina tavi,
Zamona holi mol, qofi unlardan qalaysizlar?

Bosib xalqi jahonni, ayladi toroj o‘g‘rilar,
Salomat yotdingizmu, bo‘yla tunlardan qalaysizlar?

Fasodu olam etti shu kabi har yerda insonni,
Bu tarzda fitnayu toroj bunlardan qalaysizlar?

Ki har bir kishida ming xil alomatu qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o‘rinlardan qalaysizlar?

CHAMAN ICHRA

O‘shal bulbul qilar afg‘on sahar vaqti chaman ichra,
Qo‘nar gul deb tikan uzra sahar vaqti chaman ichra.

Qilar bag‘rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo‘lur gul zavqidin qurbon sahar vaqti chaman ichra.

O‘shal bulbul bo‘lur dog‘lar, chamanni gasht etib chorlar,
Qizil gulni tilab yig‘lar sahar vaqti chaman ichra.

Chiqar bulbulni afg‘oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasadduq gul uchun joni sahar vaqti chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo‘lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so‘rdi sahar vaqti chaman ichra.

Muyassar bo‘lsa ul jonon, ato qilsa o‘shal subhon,
Yo‘lida jon qilay qurbon sahar vaqti chaman ichra.

Ibratliy, bexabar bo‘lma, yana g‘aflat bila o‘lma,
Gunohi beaded qilma sahar vaqti chaman ichra.

ADO QILASIZ

Ramuz, dilbari jonon, mani ado qilasiz,
Bu telbalarni yana g'amga muftalo qilasiz.

Suchuk til bila tabassum qilib, so'rab holim,
Avvalda va'da berib, oxiri jafo qilasiz.

Libosi atlas kamzul kiyib, havo aylab,
Raqiblar oldida ko'z bila imo qilasiz.

Ko'zum qarosi kuygayki, boshqaga qarasam,
Agar gapursam, tilimni tilim-tilim qilasiz.

Agar g'azab bila borib, mozorima tebsang,
Ayog'im og'ridi deb, qabrima jafo qilasiz.

Labingni xolini o'pmoqchi bo'lib savol etsam,
Xiroji Misru Badaxshon debon baho qilasiz.

G'amingda Qozi quling yig'layur hama doyim,
Qoshingni yoy etibon, kiprikni qaro qilasiz.

TARIXI CHOPXONA

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona
Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona.

Maqsad bu ishdan erdi olamg'a ilm kasri,
Ham qo'ymoqg'a asarlar yodovari jahona.

Kasbu kamoli islom bo'lmay taraqqiyatda,
Holig'a tushmasun deb etduk buni bahona.

Bizdin keyingilar ko'b ilmu hunar toparlar,
Hayfoki, anda biz yo'q, yo'q e'timodxona.

Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o'tdi,
Mingdin biri qo'yubdur olamg'a bir nishona.

Men katta boy emasdim kim aylasam binoe,
Daxlim yetishmas erdi ro'zg'ori choyu nona.

Sad hayfkim, g'anilar sarfini bilmadilar,
Yeb-ichdilar semurub, sig'may turub chopona.

O'z asrimizda o'tdi bir necha ag'niyolar,
Qoldirmayin nishona yer ostin etti xona.

Fikr aylasa kerakdur bu dahri bebaqoda,
O'tmish Rasul, shahlar ko'b kelmag'ay bayona.

Gar yuzlanib baqog'a ketsang bu mamlakatdin,
Qaytib kelib bo'lurmu bu mamlakatga yana?

Bul senga katta ibrat, hushyor bo'lki, ketdi,
Emdi senga kelurmu ketgan u ota-ona?

Bu roqimi jaloli ma'vosi qal'aixon,
CHopxona kotibidur, gar so'rsa har kim olon.

Ibrat taxallusimdur, ahfodi Hazrati Sulton,
SHuhratda— Hoji to'ra, ma'vosi— To'raqo'rg'on.

To'raqo'rg'on, 1908-yil

KO'RGONI KELDIM SOG'INIB

Guldek yuzingni, dilbarim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.
Sen shohi olam, men gado,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Kel-kel mani holim so'rab,
Ey, oshiqi holim xarob,
Bo'ldi yurak-bag'rim kabob,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,
Yig'lab yuribman, ey nigor,
Kel ey, bukun, ko'zi xumor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Sizdin bo'lak yo'qtur kishim,
O'zga bilan yo'qtur ishim,
Mastona ko'zli mahvashim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Tan ichra jonim sen eding,
Xush mehrimonim sen eding,
SHirin zamonim sen eding,
o'rgoni keldim sog'inib.

Man xasta dil hayron bo'lub,
Ishqingda sargardon bo'lub,
Parvona yanglig' o'rgulub,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Darding bilan darmondaman,
Topkin iloj, bemoraman,
Vasling bilan aftodaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ey dilbari nozik badan,
Ham tishlari durri Adan,
Oy yuzlari bog'i chaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Bog'u bahorim san mani,
Ko'zi xumorim san mani,
SHirin zamonim san mani,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Mandin yashirma yuzlaring,
YOding'a tushdi so'zlaring,
Kuydurdi, yorim, ko'zlaring,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ko'yingda, dilbar, zor-zor,
SHomu sabo, laylu nahor,
Yo'q emdi bizda ixtiyor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ibrat quling qildi duo,
Sandin ijobatdur yano,
Doyim deyur hamdu sano,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

MADANIYAT HAQIDA MASNAVIY

Ko'rdim, Ibrat, jahon mashaqqatini,
Ko'ramiz emdi aning rohatini.

Madaniyatni ko'rmay odamdin,
Ketmasak erdi ushbu olamdin.

Madaniyat jahonda osoyish,
Xulq husni anga oroyish.

Madaniyatni(ng) shahrida turmish
Kishi go'yoki jannat ichra emish.

Madaniyat xaloyiqqa rohat,
Ko'rmagay g'amni hech soat.

Madaniyatni(ng) shahri ichra tur,
Dashtda yurma, guliston ichra yur.

Sanga bu olam g'animatdur,
Barcha ashyosi sanga ne'matdur.

O'lturub yetkarur hama ishni,
Bilmagay hech yoz ila qishni.

Muddao jumlası muhayyodur,
SHahar ko'chalari musaffodur.

Bormoq, kelmoq ishlari oson,
Ko'rmagay hech kim mashaqqati jon.

Madaniyatda yurgil o'lguncha,
Badaviyatda shoh bo'lguncha.

Madaniylar o'zig'a shoh o'lg'ay,
Badaviylarki bir gado o'lg'ay.

Badaviy xulqi misli darranda,
Madaniy go'yoki sozanda.

Badaviylar ishi mashaqqatda,
Madaniylar hamisha rohatda.

Badaviylik erur halokatlik,
Ilmi axloq yo‘q, falokatlik.

Madaniy rang-ro‘yidan ma'lum,
Badaviy holidan bo‘lur mavhum.

Madaniylar kunda qirq rahmat,
Badaviylar qirq qunda bir rahmat.

Badaviylarda ko‘b jaholatlar,
G‘ayri shar‘iy ajib kasofatlar.

Badaviyatda jami' zahmatlar,
Madaniyat ichinda rahmatlar.

Madaniy kim deb qilursiz fikr,
Badaviylarni ayladim ko‘b zikr.

Bo‘lg‘ay axloqi ilm ila marg‘ub,
Badaviy jahl fe'l ila ma'yub.

Madaniy shahar hozir olamda,
O‘n ikkidur hisob odamda.

Misr, Istanbul, Farish, Berlin,
Lundun va Madrid, Vashulg‘itun.

Vena, Petergrod ham To‘kiyo,
Madaniyatda bo‘lg‘uvchilar bu.

Birisini oti erur Rumo,
Madaniyatni(ng) yeri erur Doniyo.

Madaniylikda fe'lu af'oli,
Rohat ichra hamisha ahvoli.

Safar aylarga ko‘b temir yo‘llar,
Ham havo foyzin alar qo‘llar.

Hama uylarda tilifun bo‘lur,
Pechka issiq, sovuq so‘lum bo‘lur.

Yozda uyda sovuq pech ila shamol,
Barcha iliktr ila o'tgay hol.

Sandalu samovar iliktriydur,
Lampa yorug'lari ani(ng) yeridur.

Simsiz tiligrom, temirsiz yo'l,
Avtomobellar yurar mashg'ul.

Foyizu konkalarga pul olmas,
Yurmagan, tushmagan kishi qolmas.

Bosh yorub, ich ochub turar jarroh,
Necha minglar muhandisu tarroh.

Shahar butkul imoratidur oliy,
Ko'cha keng, ming kishigadur xoli.

Hama dardga hakimlar tayyor,
Gar etar bo'lsa dardini izhor.

Hama ilma mudarrislardin ko'b,
Xalq ilmi maosh o'qur to'b-to'b.

Hama o'z ishi birla ovora,
Ko'chada yo'qki xalq bekora.

Anda xotunlar ham qilurlar ish,
Demagaylarki, butun yozu qish.

Barchasini maishati tayyor,
Egaylar taomni me'yor.

MAQOLALARDAN NAMUNA

QO‘QIN-NAMANGAN TEMIR YO‘LINING OCHILISHI

Ushbu 7-iyulda Namangan otash aroba yo‘li bitib, oni ochilganligig‘a shukrona bayrami bo‘lubdur. SHul kuni soat birg‘a Xo‘qand istansiyasig‘a boyonlardin yig‘ilib, Namanganga boradurgon poezni ko‘b ziynatlar berib, ul joyda duo va fotihalar qilib, ul yo‘lni(ng) binosig‘a sabab bo‘lgan odamlarni ham haqlarig‘a duo qilib bo‘lub, mazkur yasatulganni olib kelib siyr tortib qo‘ygan lentani kesib, aning ustig‘a «Namangang‘a salom!» deb yozgan yozuvni vokzolg‘a ro‘baro‘ qilib, ul poezg‘a Namangang‘a shukrona bayramg‘a boradurgon odamlar tushub, alohida chiroylik qilgan, ustig‘a «YAxshi soatda!» deb yozgan darvozadin poez o‘tib, Namangong‘a qarab jo‘nab, o‘shal asnoda fotograflar va ham alohida chiqarilgan sinimotograf o‘shal erda hozir bo‘lub, tasvirlarini olib turibdur. Ul poez CHust istansiyag‘a rasmi yurishda yurub borib, andin keyin Sirdaryog‘a ko‘b xarajatlar bilan bino qilgan yog‘och ko‘frikdin o‘tub, ul yo‘llarda ko‘b joylarda ko‘b chuqur joylarga qo‘frik solib, xususan, ikki chuqurlik joyg‘a biri sakkiz sarjin, biri o‘n ikki sarjin joyg‘a ko‘frik solib, bul ikki ko‘frik ul yo‘lni tezlik bilan bitmaslikg‘a sabab bo‘lubdur. Mazkur poez Chust va To‘raqo‘rg‘on istansiyalarig‘a kelganda, qishloq fuqarolari taraflarindin mutasaddilar qarshi chiqib, non-tuz ushlab, CHust mutasaddilari Farg‘ona oblasti janob voenny gubernatorini noiblarindin hukumatdordordin to‘suqqa ham otash arobani tezlik birlan kelmog‘ig‘a ionat ko‘rsatmoqlikni iltimos qilibdurlar va ham o‘z taraflaridindin beoqcha ul otash aroba keraklik erlarni bermoqlikg‘a va‘da qilibdurlar. Poez Namangang‘a kelgandindin keyin istansag‘a nihoyatda ko‘b sartiylar yig‘ilib, atrofdindin, qishloqlardindin umrida otash arobani ko‘rmagan odamlar kelib, ul otash arobani birinchi marotaba ko‘rub hayron qolib, poez kelayotgan vaqtda oq sallalik odamlar adadi nihoyatda ko‘b 25000—30000 g‘a etibdur. Namangang‘a etib duo va fotiha qila boshlaganda, ul ko‘b hujum bo‘lgan sartiylarni politsiyalar mashaqqatlar birlan tarqatib, chekkalarg‘a chiqoribdurlar. Poez to‘xtagan joyda Namangan taraftindin ko‘b ziynatlik darboza qilinub, ul darvozani gilam va bayroqlar birlan ziynat qilinub «Xush keldilar!» degan so‘zni yozib qo‘yilgan ekan. Kelgan mehmonlarni namanganlik mutasaddilar ko‘b yaxshi qarshi olib, hozirda bitmagan vakzal yaqinida besh adad odamg‘a dasturxon tayyor qilib, ziyofat qilib, ko‘b ajoyib mushaklar ham tayyor kilingan ekan. Ikki nafar askariya muzikanlar nag‘ma cholib turubdurlar. Ul nag‘magarlarni biri Xo‘qandindin poez birlan yo‘llarda mashq qilib kelibdur. Ziyofat taom vaqtida o‘lturgan odamlar ko‘b qulluqlar etib, ul baland darajalik Turkiston general gubernatori otliq askarlarni

ginirali Samsoʻnuf janoblaridin muborakbod qilib yuborgan telegromni oʻqubdurdilar va ul temir yoʻlni binosigʻa va taraddud qilgan odamlarni salomatliklarini va Turkiston viloyatini obodonchiligini tilabdurlar va yana koʻb adad muborakbod qilib yuborgan telegromlar oʻqulibdur.

Shul tariqa qilib, Namangan shahri ul birinchi poezni qarshi olmoqlikʻa xarajatni ayamabdurlar va soat 4 da erta birlan Namangandin ul poez Xoʻqandgʻa qarab borgan mehmonlarni olib joʻnab, soat 8 da Xoʻqandgʻa kelibdur.

“Turkiston viloyatining gazetisi”, 1912- yil, №54, 15-iyul.

ESKI MAKTABLAR XUSUSIDA

Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yoʻq bahonasi-la besh-oʻn sanalar (5–10 yil) osmonga qaratub, «alif, babazer, bebazer», deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham oʻquv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqgʻa taqviyatgina boʻladur. Bolalarni eski maktablar ila jamoalargʻa taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak va qamchi masʼalalarin isloh qilmoqda albatta lozimdur. Lekin oʻqulajak kitoblar – mazkur eski kitoblar, oʻqulajak domlalarida – eski domlari, maktablarida – eski hasharot uyalari boʻlduqinda bu masʼalalar ming marotabalar isloh etilsa-da, bekor, behudadur.

Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan yangi usul domlarning himoyasida boʻlgan maktablar vazh etmaki lozimdur. Eski maktabdorlarimiznida dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdur. Bu soʻzum janobi muallimlarga – eski va yangi domlalarimizga oxirgi soʻzum.

Men oʻzum ham oʻzimgʻa qarashlik oʻnta-oʻn beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafinda bir muallim jalb edub, maktab qilib verdim. Maktabning kushodigʻa uch oy boʻlgani yoʻq. Yigirmadan ziyoda kichik bolalar «alif nima?» degan savolina «kaltak» deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgʻon boʻldilar. Toʻrt-besh va etti-sakkiz sanalar Qoʻqongʻa yurub, hech narsa bilmagan mullabachalar bitamomihi arabiy mukolamagʻa qodir boʻlib, har bir kitoblarni mutolaa etadurgon boʻldilar. SHul sababdin biz koʻzumiz ila tajriba qilib, bul oʻqutishga tamom ixlos qildik. Agar Rusiya ilmlarini bilmak darkor boʻlgan holda, oʻshal maktablarda Rusiya muallimlaridin saqlab, biror dars Rusiya ilm va zabonidan taʼlim berilgan holda ancha nafʼ olur edilar.

“Turkiston viloyatining gazetisi”, 1907-yil, №72

MILLATNI KIM ISLOH ETAR?

Biz Turkiston musulmonlari orasinda xilofi shariat odatlarini ko'pligi har kimg'a ma'lumdir. Muning daf'i va islohini kim etar? Bizni fikrimizcha, muning daf'u islohi'g'a ulamo hazaroti kamari himmat bog'lab, muqaddas mehrobu minbardan va'z so'ylab, aholig'a ahkomi shariatni bildurub, baytulloh hukmindagi masjid va jome'larida erta-yu kech amri ba ma'ruf va nahy az munkar etib, xaloyiq anglayturgon bir til ilan pandu nasihat etsalar ham muning hech qo'ymasdan har kun ba'd az namozi fajr va ba'd az xufton doim muxtalif mavzu'lardan bahs etsalar, albatta, ta'sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidg'a so'ylagan va'z har bir mo'amin qalbina du bolo ta'sir etar.

Qur'oni karim amri ma'ruf va nahyi munkar etmoq uchun mav'izan pandu nasihat uchun ko'p oyatlar borligi ulamo hazarotlarig'a ma'lumdir. Olami islomni har tarafidagi masjidlarda xalq tili ilan va'zu pand etmoq joriydir. Yolg'iz Turkiston va Buxorog'a, bilmayman, na sababdan joriy emas. Oningchun xalqni axloqu odobi islomiyasi kundan-kun buzilmoqda. Ori, bizni masjidda «saloti Mas'udiy»ni bechora avom anglamaydur. Zotan, oti imomlarni o'zlari o'qimoqlari lozim. Loaqal, mazmunini avomg'a tushundurmoq kerak. Holbuki, xaloyiqg'a zarurroq, kerakdur. Bugun ko'paygan buzuklik va fasodlarni islohi uchun va'z qilmoq kerak. Zaruriyoti diniya va axloqi islomiyani alarg'a ta'lim va tanbeh qilmoq kerakdur. Ba'zan namozi fajrdan so'ngra masjidg'a omi gadoylar g'azal o'qib, xurofot so'ylab, va'z aytgan bo'lub sadaqa jamlar. Besavod bir gadoy og'zig'a kelganini imom afandi huzurinda bemuhobo so'ylar. Hech kim anga bir nima demas. Holbuki, masjid ichinda gadoylik va sadaqa durust yo'q edi. Imom afandilar masjidda va'z aytsalar, xaloyiqni bilmaganini bildursalar, albatta, izzatu hurmatlarida ziyoda bo'lur. Xaloyiqda isloh topilur, dunyovu oxiratda ajrlari ham ziyoda bo'lur. Zotan, ulamo hazrotiki, varasat ul-anbiyodurlar, vazifalari ta'limu hidoyati xalqullohdur. Kuntum xayra ummatin uxrijat linnasi ta'muruna bil-ma'rufi va tanhavna anil-munkar, 'ulamau ummatiy kaanbiyai bani Isroil oyat va hadislarining sha'ni shudur.

Sobiq «Samarqand» jaridasi va «Oyna»da ham bir necha daf'a munda bahs bo'lub edi. Alhamdulillahki, idorag'a yaqinda xabar olindiki, Samarqandni Xojajon Xoja mahallasining imomi muhtaram domla Hoji Abdug'affor janoblari bir necha kundan beri xalq tili ilan ba'd az namoz va'zi pandu nasihatg'a boshlabdurlar. Namozguzorlar nihoyat rozi emishlar va adadlari ham ko'payibdur. Va'zlarida ta'sirini oz bir muddatda ko'rsatibdur. Alloh taolo bu imom amsolini ko'paytirsun. Domla Abdulg'affor janoblari bir necha sanalar Harami muhtarami Nabaviy hazratlarining Samarqandda bu amri lozimni boshlaganlari uchun tabrik etarmiz. Ori, ulamo qavmidindurlar. Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur.

«Oyna», 1914- yil, 12-son, 274- 275-betlar.


ILOVALAR



Ibrat. Yoshlik yillari.



Ibrat. 1937 yil.



Tarixi Farg'ona asarining birinchi sahifasi

1) Sanskrit (qadimgi hind) yozuvi

مندان بنامہ افغانی ہج کورستہ قدرعی سی بولہ در

САНСКРИТ. ПНЕМА

[illegible]

अ	६
इ	७
उ	८
ऋ	९
ॠ	१०
ए	११
ऐ	१२
ओ	१३
क	१४
ख	१५
ग	१६
घ	१७
ङ	१८
च	१९
छ	२०
ज	२१
झ	२२
ञ	२३
ट	२४
ठ	२५
ड	२६
ढ	२७
ण	२८
त	२९
थ	३०
द	३१
ध	३२
न	३३
प	३४
फ	३५
ब	३६
भ	३७
म	३८
य	३९
र	४०
ल	४१

व २
 ग ३
 घ ४
 ङ ५
 च ६
 छ ७

یو ایکی ہندیکہ بوب فوق

التی عرف بہ بدن یا بطور

ایکون ہر حرف اکبر ۲۰۰

ایمان اور قبولہ مضمون

شہل طریقہ بولکان ایکٹ

عربی دیک بر صمدن چیقاند و راصلی بوفینکی خطی

قریبی حروف فنیکی

Древне-Феникское письмо

2 6 3 19 13 19 24

7 8 9 10 11 12 13

14 15 16 17 18 19 20

21 22 23

فنیکی خطی دن چیقاند یکپی عبرانی خطی

حروفی اوله همه خط لاری و فاریدی پست

قربان زید را یکان بنمونه فی انگلیسی یاد

3) Yunon yozuvi

Α α	Ι ι	Α α	Ξ ξ	Ω ω	Η η
Β β	Ϛ ϛ	δ δ	Ο ο	ς ς	ο ο
Γ γ	Ϝ ϝ	ε ε	Π π	ϙ Ϛ	φ φ
Δ δ	ρ ϓ	ς ς	Ρ ϣ	ς ς	τ τ
Ε ε	σ σ	χ χ	Σ σ	ς ς	κ κ
Ζ ζ	ι ι	ι ι	Τ τ	ς ς	τ τ
Η η	θ θ	κ κ	Υ υ	ι ι	γ γ
Θ θ	δ δ	κ κ	Φ φ	ς ς	φ φ
Ι ι	ο ο	ι ι	Χ χ	ς ς	κ κ
Κ κ	ς ς	κ κ	Ψ ψ	ς ς	ω ω
Λ λ	ς ς	λ λ	Ω ω		
Μ μ	ς ς	μ μ			
Ν ν	ς ς	η η			

بزرگوار! تو مانچہ حالی فی ہمدی خطا در ستر تیبیدہ بوجا ریندینک
یازوب اوز یازیدیش طاوولی جلییدہ شو ندن اکیون

Bu yerda yunon harflari oldiga arabiy-turkiy harflar qo'yilgan.

کتبت عثمان بن عفان

و خطا لاله لاله لاله
لله لاله لاله لاله
لله لاله لاله لاله

ДРЕВНИЙ КУФИЙ

ترجمہ

وجعلنا آية النصارى ليعرفوا فضلنا
وتعلموا مددنا وفضلنا
تفضلنا وفضلنا
افضلنا وفضلنا

5) Qadimgi yahidiy yozuvi





















ДРСОНСВЕРНОКАЯ
 


6) Slavyan yozuvi (qadimgi rus, ukrain, belorus yozuvlari)

نزیب: جنسی فحش ایڈز اور شش درد ویاں

Словянокая خطی

۲۱ ۲۲ ۲۳ ۲۴ ۲۵ ۲۶
 ۲۷ ۲۸ ۲۹ ۳۰ ۳۱ ۳۲

Зз Ии Ът Кк Лл

۴۴ ۴۵ ۴۶ ۴۷ ۴۸


$\mathbb{P}^1$ $\mathbb{A}^1$ $\mathbb{A}^2$ $\mathbb{P}^2$ $\mathbb{A}^3$

۴۶ ۴۷ ۴۸ ۴۹ ۵۰


$\frac{1}{2}$ $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{2}$

۷۷ ۷۵ ۷۴ ۷۳ ۷۲ ۷۱ ۷۰ ۶۹ ۶۸ ۶۷ ۶۶ ۶۵ ۶۴ ۶۳ ۶۲ ۶۱ ۶۰ ۵۹ ۵۸ ۵۷ ۵۶ ۵۵ ۵۴ ۵۳ ۵۲ ۵۱ ۵۰ ۴۹ ۴۸ ۴۷ ۴۶ ۴۵ ۴۴ ۴۳ ۴۲ ۴۱ ۴۰ ۳۹ ۳۸ ۳۷ ۳۶ ۳۵ ۳۴ ۳۳ ۳۲ ۳۱ ۳۰ ۲۹ ۲۸ ۲۷ ۲۶ ۲۵ ۲۴ ۲۳ ۲۲ ۲۱ ۲۰ ۱۹ ۱۸ ۱۷ ۱۶ ۱۵ ۱۴ ۱۳ ۱۲ ۱۱ ۱۰ ۹ ۸ ۷ ۶ ۵ ۴ ۳ ۲ ۱

Is'hoqxon to'ra Ibrat qiziqqan soha va yo'nalishlar



Ibrat sayohat qilgan yirik shaharlar



MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu: Is'hoqxon to'ra Ibratning hayoti va ijodiy-ma'rifiy faoliyati. Ibratshunoslik. Is'hoqxon to'ra Ibrat shoir va tarixnavis	7
2-mavzu: Is'hoqxon to'ra Ibrat – tilshunos va publitsist. Ma'rifatparvarlik, pedagogik va noshirlik faoliyati	15
Shoir she'rlaridan namunalar: g'azallar, murabba' va masnaviylar	31
Maqolalardan namunalar	39
Ilovalar	42

Hurmatli o'quvchilar kitobda Qur'on oyatlari va hadislardan namunalar keltilgan o'rinlar bor. Shuning uchun uni ehtiyot qilishingizni so'raymiz.

Ilmiy-uslubiy nashr
Qahhorjon Yo'lchiyev
Is'hoqxon to'ra Ibrat

Muharrir:
A'zam Ismoil

Техник муҳаррир:
Abduvahob Qayumov

Корректор:
Oqila Ahmadjonova

Bosishga ruxsat etildi: 12.04.2018. Bichimi 84X108 _{1/16} Hajmi 3.5 b.t.

Farg'ona shahar, Murabbiylar, 19-uy.

Adadi: 100 nusxa.

